**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O.N. SHOMURODOV**

# TASVIRIY SAN’AT TARIXI
## (portret, manzara, natyurmort, animalistik, batal janrlari)

**5110800-***Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o’quv qo‘llanma*

**“Durdona” nashriyoti**
**Buxoro - 2021**

**UO'K 75.02(075.8)**
**85.14ya73**
**Sh 77**
Shomurodov , O.N.
Tasviriy san’at tarixi (portret, manzara, natyurmort, animalistik, batal janrlari) [Mant] : o‘quv qo‘llanma / O.N. Shomurodov.- Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona,2021.-140 b.

**KBK 85.14ya73**

Mazkur o’quv qo’llanma 5110800 - “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo’nalishi talabalari, badiiy yo’nalishdagi kasb-hunar kollejlari o’quvchilari hamda havaskorlar uchun mo’ljallangan.

Ma’lumki tasviriy san’at taraqqiyoti, uning nazariy asoslarining shakllanishi jarayoni ibtidoiy jamoa davridan boshlab nihoyatda uzoq yo’lni bosib o’tdi. Bu borada san’atshunos va tarixchilar tomonidan nihoyatda ulkan va boy meros to’plangan. Shuni hisobga olib, mazkur qo’llanmada tasviriy san’atning nazariy asoslari, shuningdek manzara, portret, natyurmort, batal, animalistik, chet el va o’zbek rassomlari ijodi batafsil yoritilgan.

Muallif taqdim etayotgan ma’lumotlarni iloji boricha qisqa va lo’nda qilib aks ettirishga harakat qilgan. Qo’llanma nihoyasida berilgan tasviriy san’atga oid atamalarning izohli illyustrativ lug’ati o’quvchilarning shu sohadagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beradi.

***Taqrizchilar:***

**D.K. Mamatov,** Bux DU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti
**I.B. Kamolov,** Qarshi davlat universiteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri, P.f.f.d. (PhD)

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug’iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro’yxatga olish raqami 356/7-108.**

**ISBN 978-9943-7671-3-3**

## АННОТАЦИЯ

Этот учебник предназначен для студентов 5110800 - «Изобразительное искусство и инженерная графика», студентов профессиональных колледжей в области искусства и любителей.

Известно, что развитие изобразительного искусства, процесс формирования его теоретических основ прошли долгий путь со времен первобытного общества. Историки искусства и историки имеют очень богатое и богатое наследие в этой области. Имея это в виду, в этом руководстве подробно рассматриваются теоретические основы изобразительного искусства, а также пейзажи, портреты, натюрморты, батальоны, анималистические, зарубежные и узбекские художники.

Автор попытался представить информацию как можно более кратко и кратко. Пояснительный иллюстративный словарь терминов изобразительного искусства, приведенный в конце пособия, позволяет студентам расширять и углублять свои знания в этой области.

## ANNOTATION

This textbook is intended for students of 5110800 - "Fine Arts and Engineering Graphics", students of professional colleges in the field of art and amateurs.

It is known that the development of fine arts, the process of formation of its theoretical foundations has come a long way since the time of primitive society. Art historians and historians have a rich and rich heritage in this area. With this in mind, this guide details the theoretical foundations of fine arts, as well as landscapes, portraits, still lifes, battalions, animalistic, foreign and Uzbek artists.

The author has tried to present the information as briefly and succinctly as possible. An explanatory illustrative dictionary of fine arts terms provided at the end of the handbook allows students to expand and deepen their knowledge in this area.

***Рецензенты:***

**Д.К. Маматов,** доцент кафедры изобразительного искусства и инженерной графики Бухарского государственного университета

**И.Б. Камолов,** Заведующей кафедры изобразительного искусства и инженерной графики Каршинского государственного университета P.f.f.d. (PhD)

***Reviewers:***

**D.K. Mamatov,** Associate professor of fine arts and engineering graphics Bukhara state universitety

**I.B. Kamolov,** Head of department fine arts and engineering graphics Karshi state universitety, P.f.f.d. (PhD)

# MUNDARIJA

**Kirish .......... 6**

**1-mavzu. Tasviriy san'at tarixiga muqaddima. Tasviriy san'at tur va janrlari. Ibtidoiy jamoa tuzumi va san'ati. .......... 8**

Tasviriy san'at tur va janrlari. .......... 9

Grafika .......... 12

Portret janri .......... 13

Natyurmort janri .......... 22

Animalistik janr .......... 28

Batal janri .......... 34

Maishiy janr .......... 36

**2-mavzu: Qadimgi dunyo san'ati. Qadimgi sharqdagi quldorlik davlatlari san'ati. Qadimgi Misr san'ati. Old Osiyo san'ati .......... 43**

Qadimgi dunyo san'ati. .......... 43

Qadimgi sharqdagi quldorlik davlatlari san'ati .......... 43

Qadimgi Misr san'ati. .......... 44

Old Osiyo san'ati. .......... 46

**3-mavzu. Tasviriy san'at muzeylari .......... 49**

Jahonning eng yirik tasviriy san'at muzeylari .......... 49

O'zbekistonning tasviriy san'at muzeylari .......... 51

Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi .......... 53

**4-mavzu. Chet el rassomlari ijodida tasviriy san'at janrlari .......... 55**

Leonardo da Vinchi .......... 55

Frans Xals .......... 56

Rembrandt .......... 57

Nikola Pussen .......... 58

Klod Lorren .......... 60

**5-mavzu. O'zbek rassomlari ijodida tasviriy san'at janrlarining rivoji .......... 61**

O'rol Tansiqboev .......... 61

Chingiz Axmarov .......... 63

Malik Nabiev- O'zbekiston xalq rassomi .......... 66

Bahodir Jalolov - O’zbekiston xalq rassomi .................................... 69
Alisher Mirzayev - O’zbekiston Xalq rassomi ................................ 72
Laylo Abdubakirovna Salimjonova ................................................ 73
Abdullayev Abdulhaq - O’zbekiston Xalq rassomi ......................... 76
**Tasviriy san’atga oid atamalarning izohli lug’ati .......................... 77**
**Ilovalar ............................................................................................ 84**
**Rassom-pedagoglarning ishlaridan namunalar ........................... 109**
**Test savollari ................................................................................ 114**
**Foydalanilgan adabiyotlar ........................................................... 137**

# KIRISH

O’zbekiston mustaqil respublika deb e’lon qilinishi va uning yangi ijtimoiy taraqqiyot yo’lidan borayotganligi boshqa sohalarda bo’lgani kabi oliy ta’limining hamma bo’ginlarining faoliyatini ham qayta ko’rishni talab etmoqda. Bu talablar bevosita tasviriy san’at o’quv faniga ham taaluqlidir. Ayniqsa, asriy an’analarga ega bo’lgan Tasviriy san’at turlariga o’quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san’at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san’at sohalarida ham tub o’zgarishlar davri kechmoqda. Bu o’zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo’llay olish ko’nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi. Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga molik bo’lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko’p yillar davomida milliy boylik bo’lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go’zal hunarlaridan biri tasviriy san’atni o’rgatish va u soha bo’yicha bo’lg’usi tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlash muammosi ham hozirgi kunda juda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo’shilishida xalqimiz madaniyati, ma’rifati, san’ati va manaviyatining roli beqiyosdir.

Xalqimiz ma’naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san’atning ham o’z o’rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo’lgani kabi tasviriy san’atda ham katta o’zarishlar bo’lmoqda. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisi so’zsiz, tasviriy san’atning ifoda vositalari haqida chuqur ma’lumotga ega bo’lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo’llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san’at o’qituvchisining o’zi qalam va bo’yoqlar bilan rangda ifoda etish ko’nikmalariga ega bo’lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o’quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo’llanmada tasviriy san’at janrlari haqida nazariy va metodik ma’lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Tasviriy san'at talabalarda ma'naviy madaniyatning ajralmas qismlaridan biri hisoblangan badiiy madaniyatni uyg'un rivojlantirish, talabalarni milliy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno qilish, ijodkorlikka keng yo'l ochib berishdan iboratdir. Uning vazifalariga esa o'quvchilarda badiiy ijodiy qobiliyat, kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, badiiy va estetik didni, ko'z xotirasini, chamalash qobiliyatini, tasviriy malakalarni, rang sezishni hamda fazoviy obrazli tafakkurni rivojlantirish, borliq va san'at asarlaridagi go'zalliklarni ko'ra bilish, san'at asarlarini o'qiy olishga o'rgatish ham kiradi.

Hozirgi kunga kelib, oliy ta'limning tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida bilim olayotgan talabalar tasviriy san'at janrlari haqida keng ma'lumotga ega bo'lishlari talab etiladi. Mazkur qo'llanma har bir san'at ixlosmandini talaba va o'quvchilarni tasviriy san'atning janrlari haqida bilimlarni boyitishga xizmat qilishi zamin bo'la oladi.

# 1-MAVZU. TASVIRIY SAN’AT TARIXIGA MUQADDIMA. TASVIRIY SAN’AT TUR VA JANRLARI. IBTIDOIY JAMOA TUZUMI VA SAN’ATI.

San’at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo’ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go’zallik hissi ortdi, voqelikdagi go’zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o’zgarishlar sodir bo’ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san’at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san’at va san’atkorlar shu davrda paydo bo’ldi. San’at esa o’zining o’ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ’ib etuvchi kuchli g’oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan etishib chiqqan iste’dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go’zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag’lubiyatlari ularning asarlarida o’z ifodasini topdi. O’ar bir davrda mavjud bo’lgan ana shunday san’at hayot go’zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da’vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo’lib qolmay, balki o’zida inson aql-zakovati, hayot to’g’risidagi fikr-o’ylarini aks ettiruvchi ko’zgu hamdir. Jahon san’ati tarixini o’rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o’tmish odamlarning his-tuyg’u, hayotiy tajribalarini o’rganish g’oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so’zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.

## Tasviriy san’at  tur va janrlari.

**Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik** tasviriy san’atning turlari hisoblanadi.

Rangtasvir tasviriy san’atning eng muhim turlaridan bo’lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san’at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o’rin egallaydi.



**Polotnoga ishlangan rasm.**



**Devorga ishlangan rasm**

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko’ra monumental, dekorativ, mo’jaz hamda dastgohli turlarga bo’linadi.

Monumental rangtasvir me’morchilik bilan bog’liq bo’lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo’llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko’rishga mo’ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

**Monumental rangtasvir**



Dekorativ san’at turi - asosan bino va inshoatlar peshtoqi, interyer bezagida keng qo’llanilgan. Bu san’at o’z rivojini, uy ro’zg’or

buyumlarini bezashda juda ko'p ishlatilib, mukammal darajaga erishdi. Bunga Jostov bezak rasmlari misol bo'la oladi.



**Dekorativ rangtasvir**

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera buyoqlarida maxsus dastgoh (molbert)larga o'rnatilib ishlanadi.

**Grafika** - lotincha "grafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va haqazolar kiradi.



**Grafika**

**Haykaltaroshlik** - tasviriy san’at turlaridan biri. U lotincha “skulpo” so’zidan olinib, qattiq materiallarga “qirqish, kesish, o’yish, taroshlash” orqali ishlov berish ma’nosini anglatadi.



**Haykaltaroshlik**



**Norqul Shomurodov byusti**

**Janr** so'zi fransuz tilidan - tur ko'rinish degan ma'noni anglatadi. Umumiy tushunchasi bu - chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari. Masalan: manzara, tabiat ko'rinishlarini aks ettiradigan rasmlarni manzara janriga oid rasmlar deyiladi. Alohida yoki odamlar to'pini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyilsa, meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va hokazolar.

## Portret janri

**PORTRET-** san'ati qadimda paydo bo'lgan. Portret fransuzcha portrait so'zidan tarjima qilinganda "tasvir" degan ma'noni bildiradi. Portret-tasviriy san'ati janri hisoblanadi. Real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo'lgan hayotiy qiyofalarning tasviri. Portret rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek foto, san;atchining muhim shartlaridan biridir. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (modem, asli)ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, kasbi, jamiyatdagi hayotdagi o'rnini, kasbi, mavqrini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xusisyati siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Portret tarzida tasvirlanish faqat bosh qismi, beligacha, butun bo'y basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha



**Norqul Shomurodov portreti**

janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, yani atrof muhitni ekas ettirmasdan) tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portretni portret va portret kartina (janrli portret)ga ajratiladi.

Qadimiy Misrda portretning noyob namunalari (haykaltaroshlikda Exnaton, Nefertiti va b. haykallar) yaratiladi. Yunonistonda shoir, faylasuf va davlat arboblarining umumlashma, ideallashtirilgan haykal portretlari ishlandi (haykaltarosh Alopekli Demetriy, Lisipp va b.), ellinizm davrida dramatik obrazlar yaratishga intilish kuchaydi. Antik davr haykaltaroshlik portreti Qadimiy Rim san'atida yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, aniq shaxsga e'tibor oshdi. portretda shaxsning individual fazilatlarini aniq ko'rsatish, ruhiy kechinmalarini ochish jarayoni sezilarli o'rin egalladi, haykal va byustlar bilan bir qatorda tanga va medallar, gammalarga portret, shuningdek, rangtasvir portret ishlash keng tarqaldi. Dastgoh portretining rangtasvir namunalari bo'lgan fayyum portretlari (Misr, I-IV-asrlar) ham antik san'at an'analari ta'sirida rivojlandi.

Uyg'onish davrida portretning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol, o'z qadr-qimmatini biladigan qo'rqmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi. Borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyotda qo'llashga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks ettirildi. Yuksak Uyg'onish davri buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael, Jorjone, Titsian, Ya. van Eyk, Rogir van der Veyden, A. Dyurer, Katta Lukas Kranax, Kichik Xolbeyn va boshqalar portretdagi obrazlar mazmunini chuqurlashtirdilar, XVII asrga kelib demokratik qarashlarning ortib borishi insonga chuqur muhabbat bilan sug'orilgan, nozik his-tuyg'ularni anglash va tasvirlashga qaratilgan to'laqonli va harakatga boy portretlarni maydonga keltirdi, guruh portret rivojlana boshladi (Rembrandt, Xale va b.). Avtoportret shu izlanishlar mahsulidir, rassom inson ruhida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z qiyofasida, qarash, yuzdagi mimik o'zgarishlarda ifodalashga harakat qildi. XVIII asr portretida shaxsning ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi o'rni haqqoniy aks eta boshladi (Fransiyada — J. B. S. Sharden, J. A.Sharq (O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron, Hindiston va b.)

miniatyura san’atida portretning nodir namunalari yaratilgan (Rizo Abbosiy va b.). Jumladan, o’zbek portret san’ati ham boy tarixga ega. Bu san’at namunalari qad. va o’rta asrlar san’atida uchraydi (Yunon-Baq-triya, Xorazm, Kushan podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo’rtma tasvirlari), Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san’ati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va b.)dagi miniatyuralarda ma’lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo’jaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san’atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chehra so’zi qo’shilgan. Ayniqsa, boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tasviri bilan birga guruh (ko’plab a’yonlar ishtirokidagi) portret yaratish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik yevropalik rassomlar (Rembrandt, J. Reynolds va b.) ma’lum darajada o’rgangan, ilhomlangan. XX asrning XXX-50 yillaridan zamonaviy rangtasvirdagi portret rivojlandi. Shu davrda portretning hamma ko’rinishlari (portret, avtoportret, guruh portret, portret-kartina, tarixiy portretva h.k.)da asarlar yaratildi. Bahrom h&isamhhy, L. Nasridsinov, Sh. Hasanova, A. Abdullayev, O’.Sharq (O’rta Osiyo, Afg’oniston, Eron, Hindiston va b.) miniatyura san’atida portretning nodir namunalari yaratilgan (Rizo Abbosiy va b.). Jumladan, o’zbek portret san’ati ham boy tarixga ega. Bu san’at namunalari qadimiy va o’rta asrlar san’atida uchraydi (Yunon-Baqtriya, Xorazm, Kushan podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo’rtma tasvirlari), Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san’ati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va b.) dagi miniatyuralarda ma’lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo’’jaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san’atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chexra so’zi qo’shilgan. Ayniqsa, boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tas-viri bilan birga guruh (ko’plab a’yonlar ishtirokidagi) portret yaratish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik yevropalik rassomlar (Rembrandt, J. Reynolds va b.) ma’lum darajada o’rgangan, ilhomlangan. XX asrning 50 yillaridan zamonaviy rangtasvirdagi portret rivojlandi. Shu davrda portretning hamma ko’rinishlari

(portret, avtoportret, guruh portret, portret kartina, tarixiy portret va h.k.)da asarlar yaratildi. L.Nasridsinov, Sh.Hasanova, A.Abdullayev. XX asrning ikkinchi yarmida o’zbek portret san’ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasini Lutfulla Abdullayev, Abdulhaq Abdullayev, Raxim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfulla Abdullayevning «Mulla to’ychi Toshmuxamedov», «Y.Axunboboyev» portretlari realistik an’analarda mohirona tasvirlangan. Abdulhak Abdullayev birinchi o’zbek portretchi rassomlardan biri bo’lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o’z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san’at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Portret mazmuniga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi: kalla portreti, ko’krak qiyofali portret (byust), yarim gavda portret, butun gavda qiyofasi portreti, portret kartina, guruhli portret, miniatyura portreti va hokazo. Portret kompozitsiyasining tuzilishida insonning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruhiyati, shuningdek ko’li, o’tirish holati, liboslari, interyerdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muhim rol o’ynaydi. Har bir rassom portret yaratishda o’z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo’la oladi. Bahodir Jalolovni kinorejissyor «Komil Yormatov» portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi. Portret yaratishda yoshlar ulug’ portret ustalari tajribasini o’rganib. Ularda unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, bir muncha davrda uni kuzatib, suhbatlashib, uni asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o’rganishi kerak, M. Nesterovning shogirdi portret Korin doim bu amallarga sodiq qolib A.Tolstoy, N.Kachalov, M.Nesterov, N.Sar’yan portretlarni shu tarzda yaratdi. Rahim Axmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis-tuyg’ularini, orzularini, insonning go’zallik qalbini o’z asarida ochib beradi. Uning «Ona o’ylari», «Suxandaryolik ayol», «Dehqon portreti» yorqin misol bo’la oladi. Malik Nabiyev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini xam yaratish ustida ko’p mehnat qiladi. U 1952-yili «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993-yili buyuk sarkarda «Amir Temur portreti»ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o’ziga xos uslubi mavjud, u adabiy qo’lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret soxasini Lutfulla Abdullayev, Abdulxaq Abdullayev, Rahim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfulla Abdullayevning «Mulla to'ychi Toshmuxamedov», «Y.Axunboboyev» portretlari realistik an'analarda mohirona tasvirlangan. Abdulhaq Abdullayev birinchi o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o'z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san'at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

### *XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston rangtasvir san'atida portret janrining tutgan o'rni.*

XX asrning ikkinchi yarmida front safaridan qaytgan O'rol Tansiqboyev ijodiga mansub "Urush izidan" rangtasvir asarlari turkumi jangu-jadal voqealariga to'la bo'lgan, og'ir yillar haqidagi xotira bo'lib qoldi. Lutfulla Abdullaevning mehnat va urush qatnashchilariga bag'ishlab ishlagan ko'plab portretlari, Chingiz Axmarovning "Sovg'a yig'ish" polotnosi, Vladimir Ufimsevning jangnoma polotnolari va harbiy natyurmortlari, Zinaida Kovalevskaya, Pavel Benkov, Nadejda Kashina, O. Tetovasyan va shu kabi boshqa ko'plab rassomlarning hakm jang manzaralarini ifodalovchi asarlari ham shunday asarlar jumlasiga kiradi.

"O'zbekiston rassomlari Ulug' Vatan urushida" esdaliklari albomida O'zbekiston xalqining front ortidagi og'ir va fidokorona mehnati, o'zbek o'g'lonlarining jang maydonidagi jasoratlari aks ettirilgan. Ko'plab rassomlarning urushdan keyingi yillardagi ijodlarida og'ir sinovlarda g'alabaga erishgan inson obrazini, uni xarakteridagi tipik fazilatlarni ochishda umumlashgan ko'rinishlar paydo bo'ldi.

Lutfulla Abdullaevning "Askarning qaytishi", Vladimir Kaydalovning "Saxalin yo'nalishida", Pavel Benkovning "Yana Vatanda", Vladimir Ufimsevning "Partizancha" va shu kabi boshqa ko'plab asarlar xuddi shu ruxda yaratilgan.

XX asrning ikkinchi yarimi O'zbekiston tasviriy san'atiga Leningrad (hozirda Sankt-Peterburg shahri) rassomchilik Akademiyasini tamomlagan Raxim Axmedov, Mannon Saidov, Tetovas Oganesov, Ne'mat Qo'ziboev, Ro'zi Choriev, Valeriy

Zelikov, Moskva san’at oliy o’quv yurtlarini bitirgan Yuriy Elizarov, Vladimir Jmakin, Vladimir Sosedov, Eduar Kalantarov, Narimon Rahimboev va shu kabi boshqa ko’plab mahalliy rassomlar kirib kelishdi. Toshkentda Nikolay Oatrovskiy nomidagi Teatr va rassomchilik instituti ochilganidan keyin esa ularning soni yanada keskin ortib bordi.

Tasviriy san’atda barcha tur va janrlarning mavzu doirasi birmuncha kengaydi, mazmunan teranlashdi. Biroq, rassomlarning aksariyati asosan naturalistik va realistik xarakterdagi badiiy asarlar ishlash chegarasidan chetga chiqaolmadi. Chiqqan rassomlarining asarlari esa “sotsrealizm” g’oyalariga zid asarlar deb qaraldi, ko’rgazmalarga yaqinlashtirilmadi, mualliflar esa qattiq tanqid ostiga olindi.

Rassomlar ijodida xalq o’tmishi aslidan ko’ra boshqacha tarzda, ya’ni zamonga mos ravishda, partiya siyosati talab qilgan darajada yangicha talqin etildi. Inqilob va fuqarolar urushi mavzulari ko’klarga ko’tarib, olqishlandi. Bularga “Hamza”, Ro’zi Choriyevning “Amirlikning yemirilishi”, Vladimir Jmakinning “Paranji kuydirish”, “Hamza frontda”, G’ani Abduraxmonovning “Yangi xo’jayin”, Mannon Saidovning “Yigirmanchi yillar”, Nadejda Kashinaning “Bolalar yangi hayotga qadam bosyaptilar”, Baxtiyor Boboevning “Temir yo’l bekatida” kabi juda ko’plab asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Rangtasvirning barcha sohalarida bo’lgani kabi portret janrida ham rassomlar zamondoshlarining yaratuvchanlik mehnati mavzusiga ko’proq murojaat qildilar. Buning uchun rassomlar mehnat mavzusi ko’lamini kengaytiruvchi, ijodkor-yaratuvchi insonni ulug’laydigan asrlar yaratishga qattiq kirishdilar. Portret janri psixologik va badiiy jihatdan birmuncha boyidi. Naturadan ishlangan etyudnamo xarakterga ega bo’lgan portretlar va naturalistik uslubdagi portretlar o’rnini endilikda inson ruxiyatiga chuqur kirib borishga intilish bilan bir vaqtning o’zida yorqin individual va tipik obrazlarni yaratish egalladi.

Bunday asarlar sirasiga Abdulhaq Abdullaevning “Abror Xidoyatov Otello rolida”, “Yozuvchi Oybek”, “Akademik T. Qori Niyoziy”, Raxim Axmedovning “Ona o’ylari”, “Keksa kolxozchi portreti”, “Aktyor Olim Xo’jaev portreti”, “Rassom Qutlug’ Basharov”, Valeriy Fadeevning “Duradgor”, “Keksa kolxozchi Zulun

buva", Tetovas Oganesovning "Yozuvchi S. P. Borodin portreti", "Haykaltarosh Makarov", Yuriy Elizarovning "Yozuvchi Sadriddin Ayniy portreti", Chingiz Axmarovning "Temurov portreti" kabilarni kiritish mumkin.

Portretchi rassomlar ijodida buyuk bobolarimiz siymosiga murojaat qilish, ularning obrazlarini yaratish ham ma'lum ahamiyat kasb eta boshladi. SHu o'rinda Vladmir Kaydalovning "Alisher Navoiy", Malik Nabiev va Ro'zi CHorievlarning "Abu Rayhon Beruniy" portretlari hamda birinchi o'zbek rassom-ayoli Shamsiroy Xasanovaning "Qashqar shoirasi Mutriba portreti" va boshqa shu kabi o'zbek xalqining buyuk allomalari, shoirlari obrazlarining yaratilganligini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Biroq, bu asarlarning barchasidagi obrazlarda norozilik, tushkunlik kayfiyati bordek tuyuladi. Ularning barchasida, qaysi rassom ishlashidan, kim tasvirlanishidan qat'iy nazar g'amgin, tashvishli yuz-ko'zlarni ko'ramiz. Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni birortasida quvnoq kayfiyatni, shodon obrazni uchratmaymiz. Chunki, san'atni sinfiyligi, Sobiq Ittifoq Partiya siyosati rassomlar erkini chegaralab, rangtasvirni ham bir qolipdagi, mutloq majburiy san'atga aylantirib qo'ygan edi. Milliylikni o'z ijodida aks ettirgan rassom esa "millatchi" sanalgan va qattiq ta'ziq ostiga olingan. Tasviriy san'atda ham davrga mos ravishda, tom ma'noda turg'unlik davri hukmronlik qilar edi.

Bu davrdagi dastgohli rangtasvir san'ati ham grafika, plakat san'ati singari "targ'ibot rejasi" deb nomlanuvchi mafkura hukmronligi asosida shakllandi. Ana shunday bir davrda, tasviriy san'atning siyosiylashtirilgan qobig'ida ishlash, ijod qilish hammadan ko'ra rassomlar uchun juda ham qiyin kechdi.

Shunga qaramasdan juda ko'plab portretchi rassomlar qadimiy udum va an'analarni o'zida mujassam etgan. Badiiy qiymati yuqori bo'lgan kompozitsiyalar ishladilar. Ulug' mutaffakirlar, olimlar, qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan asarlar yaratish boshlandi. Bu o'z-o'zidan bo'lmadi, buni zamirida xalqimizning mustaqillik haqidagi azaliy orzusi yotar edi.

Xulosa o'rnida bu davrga qiyosiy baho berar ekanmiz, 1950-yillarda Chingiz Axmarovning chiziqli rangtasviri va 1970-yillar boshlaridagi Shuhrat Abdirashidov, Alisher Mirzayev, R. Shodiyevlarning yorqin ranglar gammasida bajargan asarlari diqqatga

sazovvor bo’lgan deyishimiz mumkin. A. Mirzaev va R.Shodievlarning asarlari – shaklning erkin o’yini, rang va nurning kutilmagan ko’rinishi, ba’zan esa ranglarning qarama-qarshi qorishiqlari, o’ta bezakdorlik, an’anaviy xalq san’atiga tayanganligi bilan ajralib turganligini ko’ramiz.

***Portret janrida tarixiy shaxslar obrazi.***

Mustaqillikning qo’lga kiritilishi va yangi mafkuraning o’z mavqeiga erishishi natijasi o’laroq, milliy tarix qayta jonlandi. Davlatimiz ravnaqi va mustaqilligini qo’lga kiritishga ulkan xissa qo’shgan O’zbekistonning ko’zga ko’ringan madaniyat va tarix namoyondalari siyosiy unutishdan va yo’qlikdan qayta tug’ilishi bilan san’atda ularning portretlari galereyasi vujudga kelishiga turtki bo’ldi.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur obraziga respublikaning barcha rassomlari murojaat qildilar desak mubolag’a bo’lmasa kerak. Bular orasida yirik rassomlar, akdemiklar Malik Nabiev va Ne’mat Qo’ziboevlarning ijodini alohida ta’kidlash lozim. Chunki, bu rassomlar o’ziga ishongan, xalqini g’amini eydigan, odil, jahongir hukmdor siymosini yarataoldilar. Ustoz Malik Nabiyev tomonidan 1999 yilda yaratilgan Amir Temur obrazi o’zining sehrli jozibasi va kuchli ifoda vositasi, ta’siri bilan zamonaviy rassomning tarixiy portretlari orasida o’ziga xos mumtoz asarga aylandi va etalon sifatida qabul qilindi. Keyinchalik Toshkent shahri va viloyatlarga qo’yilgan Sohibqiron Amir Temur haykallariga ham aynan ushbu portret asos bo’lib xizmat qildi.

Temuriylar sulolasining boshqa vakillari ham portretchi rassomlar tomonidan katta qiziqish va ishtiyoq bilan tasvirlandi. Malik Nabiyev mo’yqalamiga mansub bo’lgan Zahiriddin Muhammad Bobur portreti romantik xarakterga ega bo’lib, unda Bobur qo’liga qalam olib ijod jarayonida, ko’zlari esa olis masofalarga qadalgan holatda aks ettirilgan. Bobur siymosi Aziza Mamatova polotnosida ham ajoyib shoir sifatida o’ziga xos tarzda talqin etilgan. Taniqli portretchi rassom S.Rahmetov Temriylar davri tarixiy shaxslar obrazlarini mahorat bilan yaratadi. O’zbekiston Milliy Banki va Temuriylar tarixi Davlat muzeyi 1999 yilda etakchi portretchi rassomlar ishtirokida Temuriy shahzodalar portretlari tanlovini e’lon qiladi.

Andijonlik rassom Ulug’bek Boltaboev tomonidan ham Bobur va Temuriy shaxzodalarning portretlari ishlanadi. Ayniqsa, rasomning Bobur siymosiga juda ko’p marotaba murojaat qilinishi bilan alohida

ajralib turadi. Rassomning “Bobur ovda”, “Bobur Samarqandda”, “Bobur Xindistonda” kabi ko’plab asrlari misol bo’la oladi. Temuriy malikalar siymosiga bag’ishlab ishlangan turkum portretlar Orif Muinov mo’yqalamiga mansub asarlar sirasiga kiradi. Bu portretlarda rassom Sharq ayollari (“Bibixonim”, 1997)ga xos shoirona va jozibali jihatlarni aks ettiradi.

Bundan tashqari bu davrga kelib san’at va madaniyat arboblarining obrazlarini yaratish ham rassomlarda katta qiziqish uyg’otganligini ham quvonch bidan ta’kidlash lozim. Temuriylar davri buyuk minatyurachi rassomi Kamoliddin Behzod ishlagan va hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan portreti Akmal Ikromjonovning “Kamoliddin Behzod” (1990) rangtasvir kompozitsiyasiga hamda Abdulhaq Abdullayevning Alisher Navoiyiga (1997) bag’ishlangan polotnolariga asos bo’lib xizmat qildi. Chingiz Axmarov esa shoira Nodiraning (1992) go’zal va latif qiyofasini yaratdi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayonida rassom oldida juda ham mushkul vazifa turadi. Chunki, barcha tarixiy shaxslar haqida, ularning tashqi ko’rinishi, qiyofasi to’g’risida hamma vaqt ham etarli darajada ilmiy manbaalarni topish juda qiyin hisoblanadi. Portretni naturadan ishlash boshqa, xayolan, tasavvur asosida ishlash esa butunlay boshqa hisoblanadi. Qolaversa, ushbu portret orqali muyyan bir tarixiy davrga ham, odamlarning turmush tarziga, u davr kishisining tashqi qiyofasi, kiyinishiga ham baho beriladi. Natijada esa o’zida zamonasi ruxini umumlashtirgan ramziy portretlar ham vujudga kelgan. T.Kuryazov va E.Masharipovlarning “Jaloliddin Manguberdi”ga (1997) bag’ishlangan asarlari, M. Yo’ldoshevning “Alpomish” (1998-2000) dostoni qahramonlariga bag’ishlangan turkum ishlari, E. Masharipovning “Alpomish” (1998), Q. Basharovning “Spitamen” polotnolari shular jumlasidan hisoblanadi. Tarixiy merosimizni yoritishga 2000 yilda bo’lib o’tgan “SHaxidlar xotirasi” ko’rgazmasida “Jadidlar” portreti turkumlari bilan ishtirok etgan A.Ikromjonov, T.Qo’ziyev, M.Nuriddinov, S.Raxmatov kabi rassomlar ham katta hissa qo’shganlar.

Ushbu portretlarni yaratishda tarixiy-ilmiy manbaalar va liboslar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrga mansub bo’lgan yozma manbaalar, me’moriy obidalarni aks ettirilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikrni tasdiqlashda A. Aliqulovning etnografiyaga urg’u berilgan – ya’ni maishiy hayot buyumlari, o’sha

davr binolarining intereri, kashtachilik, gilamdo’zlik, liboslaru, qurol-aslahalarni qunt bilan ishlagan “Asov ot”, “Dor”, “Mashshoqlar” (1997) kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

1990 yillarda portret janrida sermaxsul ijod qilgan rassomlar sirasiga Baxodir Jalolovni qo’yish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, realistik asarlar yaratishda u mislsiz darajada yutuqlarga erishadi va bu borada unga hech bir boshqa rassom tenglasha olmaydi. Rassomning 1992 yilda ishlagan “Saudiya Arabistoni qiroli Araviy Faxd ibn Aziz”, 1998 yilda yaratgan “Akademik Sarvar Azimov portreti” va shu kabi boshqa ko’plab asrlari musavvirning o’zbek rangtasvirchi rasssomlar orasida dunyo talablari darajasida va undan ham yaxshiroq asar yaratuvchi rassomlari borligidan dalolat berib turadi.

S. Raxmetov ijodida portret asosiy o’rinini egallaydigan rassomlar sirasiga kiradi. Rassomning asr oxirlarida yaratgan eng yaxshi portretlari “Yunus Rajabiy portreti” (1993), “Germaniyaning O’zbekistondagi elchisi G. Kun portreti” (1999) hisoblanadi.

## Natyurmort janri

**Natyurmort janri** – natyurmort (lug’aviy ma'nosi- ***jonsiz tabiat***) haqida odatda, sabzavot - mevalar, gullar, uy ro’zgor buyumlarni tasvirni ko’zda tutadilar. Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini sezamiz. Natyurmort kompozitsiyasini ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog’lanishda qo’yilishi kerak: Qo’yilgan natyurmort kishida , qiziqish va rasm chizishga havas xissini uyg’otadigan bo’lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo’lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, xajmi, materiali, sirti (fakturasi) rang va och – to’qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda ("qush va gullar", VII asrdan) kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma’lum bo‘lgan. Yevropada XVI asr oxiri — XVII asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davri XVII asrga to‘g‘ri keladi, XVIII asrdan **"NATYURMORT"** atamasi qo‘llanila boshladi. Italyan rassomi M.

Kapaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) natyurmortning keng tarqalishida muhim rol oʻynadi: gul va mevalar, dengiz in’omi — baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V.K.Xeda, P.Klas va b.), Flandriya (F.Sneyders, Ya. Feyt va b.), Ispaniya (F.Surbaran va b.), Fransiya (J.B.Sharden va b.) va b.da yuksak taraqqiyotga erishdi. P.Sezann, A.Matiss, J.Brak va boshqalar natyurmortga koʻproq e’tiborni qaratganlar. XX asrda natyurmort realistik an’analarini Meksikada D. Rivera, D. Sikeyros, Italiyada R. Guttuzolar davom ettirdi. Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo’ldi. Kuzni aldaydigan "xuddi oʻziga oʻxshash" (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G. Teplov, P.G.Bogomolov va b.) shakllanib bordi. XIX asr I yarmida haqqoniylikka, borliqni oʻzidan goʻzallik topishga harakat qilindi (M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va b.), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuk,larga erishildi (P. Kuznetsov, P.P.Konchalovskiy, A.Kuprin va b.)

Oʻzbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qad. davr san’atida (Masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida — vazadagi mevalar), miniatyura san’atida (Masalan, Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar — siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30—50-yillariga toʻgʻri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo boʻldi: L.Nasriddinov ("Nonli natyurmort"), Sh. Hasanova ("Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort") va b.; M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, natyurmort Kashina, 3. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Yu. Yelizarov va b. natyurmort yaratdilar. 60—80yillarda L. Salimjonova, Yu. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Ye. Melnikovlar ijodida NATYURMORT keng oʻrin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikrom-jonov, M. Nuriddinov va b. natyurmortda samarali ijod qilib, natyurmortning taraqqiyotini ta’minladilar.





***Natyurmort***

**Manzara janri -** tasviriy san’atda tabiat, shahar, industrial, interyer ko‘rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko‘rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo‘ladi. Ba’zan bu ikki hol bir asarda bo‘lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo‘lishi juda uzoqlarga borib

taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimgi Sharq va Krit orollari misolida koʻrish mumkin. Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda 6 asrda paydo boʻlgan. Evropa san'atida esa Oʻygʻonish davrida ilmiy asosda ya'ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi boʻlib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, Oʻ.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni koʻrsatish mumkin.

Manzara janrining koʻrinishlaridan biri bu interyer hisoblanadi. U binolarning ichki qism koʻrinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular oʻz ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida interyerni tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilgan Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir koʻrinishi bu dendiznavislik janridir. Unda asosan dengiz koʻrinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta boʻlgan. U oʻzining umrini faqat dengiz koʻrinishlarini tasvirlashga bagʻishladi. Uning "Toʻqqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "Toʻlqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib oʻrinni egalladi.

Dengiznavislik janiridagi asarlarda boshqa jairlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkun. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazo.Manzara janiri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara asosan uning relef turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.Tasviriy san'atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzarachi musavvirlar o'z asarlarida ifodalagan obrazlari orqali tabiatni sevishga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g'oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor-musavvir har doim tabiatni sinchikovlik bilan o'rganmog'i va tafakkurini oshirib bormog'i zarur.

Manzara ustida ish boshlar ekansiz, tasvirga olmoqchi bo'lgan tabiatning o'sha qismi holatini yaqqol his qilmoq zarur. Manzaraga tushayotgan yorug'likning to'g'ri aks ettirishi uni bir qadar jonlantirib, ta'sirchanligini oshiradi. Manzarada fazoni idrok qilishning bu hususiyatlari bois, u planlar deb yuritiluvchi bo'laklarga ajratiladi.

Odatda manzaraning uch plani belgilanadi, biroq u kompozisiyaning tuzilishiga qarab bundan ko'proq yoki kamroq bo'lishi ham mumkin. Ranglar birinchi planda eng to'q, ikkinchi planda ochroq ranga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar havorangga aylana boradi. Havoning tumanli va bulutli paytlarida bu farqlar quyoshning charog'on paytiga nisbatan yanada sezilarliroq bo'ladi. Tabiat o'zining boy rangi va poyonsiz tuslari bilan bizni lol qoldiradi. Bu rang-barangliklar manzaraga xos xususiyatlarga ega bo'lgan rangga umumlashadi va koloritni belgilab beradi. Asar koloriti inson his-tuyg'ulariga zamin yaratib beradi

Kolorit manzarada boshqa janr asarlariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etib, kompozisiyaning asosiy g'oyasini yoritib beruvchi omillardan biridir. Etyud ishlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan suvbo'yoq surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Rang qatlamlarining tabiiy notekisligi, bo'yoqning tasvir shakliga mos ravishda oqib yoyilishi, suvbo'yoq go'zalligini yanada ko'proq namoyon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo'ylab «quruq» mo'yqalam ustida chiziqlar yuritib, shakl ma'nodorligini yanada oshirish mumkin. Etyudda fazoni bir bo'yoq rangini ikkinchi ranga qo'yib yuborish yo'li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning bir-birlari bilan nozik birikuvlari, uzluksiz tekis kirishuvlarni keltirib chiqaradi. To'q rang bilan yengil kurkam jilolar yordamida etyudning rang yechimi keltirib chiqariladi. Agar etyud ma'nosi muhim mavzuga mo'ljallangan bo'lsa, tasvirni «quruq» mo'yqalam yordamida aniqlashtiri sh, biror kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin. Tabiat obrazi ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki sovuq, ochroq yoki to'qroq, uning g'oyat ko'rka mligini ilg'ay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir etyud yechimiga me'zon bo'ladi. Chunonchi, tabiat har qachon ijodiy izlanishlar, go'zallikni xis qilib didni oshirish manbai bo'lib

kelgan. O'rol Tansiqboyev yaratgan manzara asarlari, nafaqat O'zbekistonda, balki jahon manzara san'ati durdonalari qatoridan o'rin olgan.



***Manzara***

## Animalistik janr



**Animalistik janr -** o’zgacha tasviriy san’at turidir. U lotincha ***“anima”, “hayvonot olami”*** degan ma’noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo’r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan. O’sha davrda ular g’orlarining devorlariga kiyik, qutos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Lyeonardo da Vinchi va A.Dyuryerlar ishladilar. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o’zining asarlarida to’rt oyoqli do’stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikririni. munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, prinitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish mumkinki, animalistik janrga oid bo’lgan tasvirlar o’sha davrlardan boshlab rivojlangan. Hozirgi O'zbekiston

hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o‘nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Mazkur g‘ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o‘ziga xos faoliyatini ko’rish mumkin. Qo'hitang tog'ining eng yuqori qismining birida joylashgan bu g'orni “Oltin olov qoyasi” yoki “Oltin olov darasi” deb ham, atashgan. Chunki g‘or - oltin, o‘t - olov ma'nosida ishlatilgan. Shu bois bu muqaddas yodgorlik “Zaravutsoy” nomi bilan atalib kelinmoqda. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mashg‘ulot turi bo‘lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o‘rinni egallagan.Tasviriy san'atning ibtidoiy davriga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomi bilan atalib kelinayotgan toshdagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda ham fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan.

Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi “Sarmishsoy” tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o‘z aksini topgan. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini umuman qadimgi san'atning tiklanishida arxeologlarimiz- ning samarali mehnatlari diqqatga sazovor. Chunonchi, Sarmishsoy rasmlari haqida A. Muhammadjonov “Qadimgi Buxoro” kitobida shunday qiziqarli fikrlarni yozadi: “Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Ularning asosiy qismi uchli asboblar vositasida surunkasiga zarb bilan yoki o'tkir qirrali keskichlar vositasida chizib yoki tarashlangan. Ming yillar osha ularning eng qadimiy nushalari quyosh va shamol ta'sirida uniqib qorayib ketgan bo'lsa-da, choshgoh va kech peshinlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxlari atrofga butalab ketgan bug‘u va quyonlar, yelib borayotgan tog' takasi, ohu, to‘ng‘iz, bo’ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan”. Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik. shakl va chiziqlar orqasida bolayotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o‘z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqqanligini

ko'ramiz. Bu rasmlafda har bir belgi, qoralama yoki shakl o‘ziga xos fikrni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Yuqoridagi dalillardan ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimizning hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o‘rin tutgan.

Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning hara katlari, qivofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks hayvonlar obrazini rasmlarda yaratish avvalo qadimdan rivojlanib kelgan. Ovdagi yutug’ini ham chizgan rasmi bilan bog’liq deb bilganlar. Bu ularning psixologik tayyorgarligiga qarab borishi deyish mumkin. Shuning uchun ham ularda qo’rqmaslik, tabiat qoidasiga buysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Tasviriy san’at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Shulardan ajralib chiqqan animalistik janr ham keyinchalik rivojlandi. Hayvonlar obrazini yaratish uchun uning xarakterini bilish lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga go’sht, tuxum, jun va boshqa narsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash, insonlarga har qanday damlarida hamroh bo’lsh uchun yaratilgandir. Juda ko’plab rassomlar jonvorlar rasmini chizgan ya’ni, O’rta Osiyo miniatyurachilarining asarlarida, Rubens, V. A. Vatagin, Ye, Rachev asarlarida hayvonlar alohida tasvirlanadi. Ko’plab suratlarda esa asarlarning bir qismi shaklida unga to’ldiruvchi bo’lib hisoblanadi.Tabiatdagi narsalarni yaxshi ko’rish, ularni himoya qilish, o’rgatish, turli suratlar orqali amalga oshadi. Ko’pinsha uy hayvonlari bizga doimiy hamrox, ot, quy, sigir, echki, it, mushuk va boshqalar. Boshqa yovvoyi hayvonlar tabiatimizning ko’rki, sanitaridir. Qushlar ham bizning eng yaqin do’stlarimiz bo’lib hisoblanadi. Ularning rasmini chizishni bilish odamga zavq bag’ishlaydi. Shunintdek, o’quvchilar animal janrlarda rasm chizar ekan fazoviy tasavvurlarini oshirib boradilar.Hayvonlar tasviri asosida asarlar yaratganda ularning hayot tarzini o’rganishni ham talab qiladi. Ularning tashqi ko’rinishi, harakteri, o’ziga xosligi tuzilishi har turli yashash tarzi to’g’risida ma’lumotlar oladi.

Animalistik janrda hayvon va qushlarning tashqi ko’rinishini, xarakterli jihatlarini tasvirlanishini o’rganish imkoniyatiga ega bo’lish mumkin. Animalistnk janr haqida umumiy ma’lumotlar va uning tarixiy taraqiyoti. Milloddan avvalgi ming yillikda

Karpatdan Shimoliy Xitoygacha bo'lgan yerlarda yashagan «skif» qabilasining san'atida ham «hayvonot uslubi» deb nom, olgan qushlar va hayvonlarning loy, metall va suyakdan yasalgan jozibali shaklariham yuksak e'tiborga molik bo'lgan. Qadimgi Misrda esa jonivorlarni tasvirlash takrorlshmas monumentallik va yuksaklikka ega edi. Sababi misrliklar ko'plab jonzotlarni o'zlarining xudosi deb xisoblashar edi.

Spinkslar – inson qiyofasidagi hayvon va qushlarning boshi qo'ndirilgan ilohiy suratlar inson va hayvonlarning tabiatdagi uzviy bog'liqligini namoyon etib turadi. Huddu shunday birdamlik aloqalari qadimgi Peru va Meksika xalqlarning dekorativ bezak ishlangan buyumlarida ham uchratishimiz mumkin. Hayvonot olaminig tasvirlanishi Qadimgi Yaponiya va Qadimgi Xitoy tasviriy san'atidagi dekarativ va monumental kompozisiyalarining keng tarqalgan motivlaridan biriga aylangan edi. Ikki daryo oralg'i mamlakatlarining san'ati ho'kiz, sher, otla rning butun gavdasi bilan yoki kalla qismining tasvirini idishlarda, kulol va musiqa asboblarida bezak o'rnida ishlatilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Qadimgi Yuioniston va Qadimgi Rim musavvirlari ijodida esa san'atning bosh obyekti inson qiyofasi olingan antik davr madaniyatnda xayvonot olamini tasvirlash alohida ahamiyatga ega emas edi. O'rta Osiyo tasviriy san'atida esa biz asosan haykaltaroshlik miniatyirani uchratishimiz mumkin. Surxondaryo viloyati Denov tuminidagi Zarautsoy harobalarfidan topilgan. Buxoro viloyatida qadimgi Varaxsha saroyida topilgan «Yararalangan quchqor» tasviri mukammal ravishda proparsionallikka e'tibor berilib ishlangan gorelef shaklidagi haykaltaroshik asari bu yerda ovchilikning naqadar avj olganidan dalolat berib turibdi.

Keyinchalik XIV-XV asrlarga kelib hayvonlarning va qushlarning tasvirini biz asosan miniatyura asarlarida uchratishimiz mumkin.Yevropa uygonish davri musavvirlari ijodida real borliqni o'zining keng qamrovi bilan tasvirlanishi, ularning hayvonlar tasviri tushirilgan natural ko'rinishlari haykaltaroshlikda freska va dastgoh janri asarlarida o'z aksini topadi. Bunday asarlar yaratilishiga birinchilardan bo'lib XV asrda Italyan musavviri A. Pezachello murojaat qildi. XVI asrga kelib esa hayvonlarning ajoyib kuch va aniqlikka ega bo'lgan suratlarini Leonardo da Vinchi va A. Dyurer yaratishdi.Gollandiyada esa XVIII asrda

xayvonlarni tasvirlash uchun aloxida janr mavjud edi. Bu janrda birinchilardan bo’lib ijod qilingan musavvirlarlan A. Keyp va P Potter o’z asartarida uy hayvonlarinnng ferma va yaylov fonida mohirona tasvirlab berishgan. Bu davrda har bir animal musavvir o’zi sevgan mavzu doirasi va obrazlariga murojaat qilar edi. XIX asrda moxir haykaltarosh A. P. Bari o’z asarida uy hayvonlarini yirtqich hayvonlar bilan – o’ziga xos jozibadorlik bilan tasvirlay olgan.

O’zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvoxi bo’lamiz. Shark miniatyura rangtasviri asarlarvda ham hayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko’p tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning “Tuyalar jangi” asari Rizo Abbosiyning “Chupon” miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir. XV—XVI asr Yevropada Uygonish davri ranggasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinchi, A.Dyurerlar hayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar. XVII asrga kelib Gollandiyada hayvonlarni tasvirlash aloxida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodg, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnesovlar ham ijod kilishib, betakror san’at asarlarini yaratdilar.

***Animalistik janr tasviriy san’atda muhim ekanligi.***

Odamlar tomonidan biror - bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san'at asari deymiz. San'at qaysi ko’rinishda bo’lmasin kishilarning his - tuyg‘usiga, ruhiyatiga ta’sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir ijodkor o‘z - o‘zicha izlanadi, o‘z - o'zicha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'at o‘ziga xos turlariga ega. Adabivot, musiqa, teatr. kino, sirk, me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak kabi boshqa san'at turlar i ham mavjuddir.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, o’rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. “Kiyiklarni ovlash” (Ispaniya) suratlarida obrazlar shar tli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o’ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo’lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada

qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. o’rta Osiyo (Surxondaryo, Farg’ona), Ozarbayjondan topilgan suratlarda ham shu xolni ko’ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg’ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, o’ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o’tmish hayotining ma’naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at o‘z o’rnida haykallaroshlik, rangtasvir va grafika kabi turlarga bo’linadi. Tasviriy san’atda voqelik, borliq shakllar, chiziqlar, rang lar orqali tasvirlanadi. Tasviriy san'at monumental va dastgoh ko’rinishlariga ham eg a. Monumental deyilganda hajm jihatidan_katta, me'morchilik, park, bog’ san’atiga, shuningdek, biror -bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san’at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi.



**Animalistik**

## Batal janri

**Batal janri-** (frans. bataille -jang) - tasviriy san’atning urush va harbiy hayot mavzularini aks ettirishga bag‘ishlangan janri. Jang ko‘rinishlari, harbiy yurishlar, qurolli kuchlarning hayotini tasvirlash batal janrida asosiy o‘rinda turadi. Aniq jang lavhasini ifodalash, uning mazmunini ochib berilishi bu janrni tarixiy janrga yaqinlashtiradi. Tasviriy san’atda jang lavhalari tasviri juda qadimdan mavjud. Podsho, fir’avn, shoxlarning zafarli yurishlarining tasvirlari Qad. Sharq san’atida, miniatyuralarda, Xitoy va Kampuchiya devoriy rasm va bo‘rtma tasvirlari va boshqalarda ko‘p uchraydi. Yevropa tasviriy san’atida batal janri Italiya rassomlari (P. Uchchello, Pyero della Franchesko va boshqalar) ijodida o‘z ifodasini topdi. XV-XVI asrlardan janr sifatida shakllandi. Rassomlar jang ko‘rinishlarini tasvirlab, urushning kishilarga qanchalar ofatlar va baxtsizliklar keltirishini yorqin lavxalarda ko‘rsatdilar. Fransuz inqilobi (1789 - 94) va Napoleon yurishlari ham ko‘pgina rassomlar ijodida o‘z ifodasini topdi (A. Gro, T. Jeriko va boshqalar), ispan rassomi F. Goyya, fransuz rassomi E. Delakrua bu janrda salmoqli asarlar yaratdi. Rus san’atida Batal janri XVIII asrdan rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Rus rassomlaridan V. Vereshchagin rus qo‘shinlarining Turkistonni mustamlakaga aylantirish yo‘lidagi urush harakatlarida qatnashib, urush ofatlarini gavdalantirgan "Turkiston" turkumini yaratgan.

XX asrga kelib jahon urushlari davrida yaratilgan, urush dahshatlari, xalq boshiga tushgan kulfatlar, ozodlik uchun kurash g‘oyalarini aks ettirgan asarlarda batal janri , tarixiy va maishiy janrlar o‘zaro uyg‘unlashib ketdi. Ijtimoiy va milliy ozodlik harakatlari batal janri da burilish yasadi, uning imkoniyat doirasini kengaytirdi, badiiy mazmunini boyitdi.

O‘zbek tasviriy san’atida bu janrning sarchashmalari qadimdan - arxeologik topilmalar (san’at namunalari) va miniatyura san’atida ko‘rinadi. Qo‘lyozma kitoblar bezagining ajralmas qismiga aylangan mo‘’jaz rasmlarda bazmlar, qabul marosimlari va boshqa lavhalar bilan bir qatorda jang lavhalarini tasvirlash qat’iy an’anaga aylangan. Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar jang lavhalarini o‘ziga xos tarzda tasvirlagan. Shuningdek yozma manbalarda ta’kidlanishicha, Amir Temur saroyi devorlariga sohibqironning qahramonlik yurishlarini aks ettirgan jang lavhalari

ishlangan. XX asr rassomlari ijodida milliy ozodlik uchun kurash, Ikkinchi jahon urushidagi xalqning jasorati, vatanparvarligi yorkin ifodasini topdi. M.Nabiyev, O‘.Tansiqboyev, 3.Faxriddinov, A.Alimuhamedov va boshqa o‘zbek rassomlari ijodida jang manzaralarini aks ettirgan asarlar, shuningdek mahobatli san’atda ham bu janrga mansub lavhalar bor (jumladan, Ch. Axmarovning O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti binosidagi devoriy rasmlari, tempera, 1969).



**Batal**

## Maishiy janr

**Maishiy janr-** tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari-Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi. Realistik rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Saviskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

O'zbek rassomlaridan R. Ahmedov, M. Saidov Z. Inog'omov, R. Choriyev, G'. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida esa hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot "kentavrlar", yarmi ayol yarmi baliq suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli baxaybat devlar va hokazolar tasvirlanadi. Afsonaviy janr tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, haykajaroshlik, grafika)da keng qo'llanadi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muxammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnesovlarni kiritish mumkin.





**Maishiy**

**Dengiznavislik janri**. (Marinizm). marina fransuzcha so'z bo'lib, ***"dengiz ko'rinishi"*** ma'nosini bildiradi. Marinizm — ya'ni dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Yevropa san'atida alohida o'rinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhum voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda ushbu yunalish muhim ahamiyat kasb qiladi. Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bogliq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirishda samarali ijod qildilar. Dengiz ko'rinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy, animal janrdagi suratlarning orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.





**Dengiznavislik**

**Nyu janri- "Nyu"** so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, ***"yalangoch"*** degan ma'noni anglatadi. "Nyu" portret janridan

ajralib chiqib, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar ko'pincha yalangoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni ko'rsatmoqchi bo'ladalar. "Nyu" portret janri kabi yakka yoki ko'p figurali bulishi mumkin. U tasviriy san'atning barcha turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qo'llaniladi.



**Inteyrer janri**. Bu janrda binolarning ichki ko'rinishi, foye, yo'lak, xonalarning o'ziga xos jihatlari, ulardagi jihatlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi. Animalistik janrini tasviriy san'aning barcha tur va janrlari bilan bo'g'liqlik tamonlari borligini bilamiz. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me'morchilik tasviriy san'at turlarida hayvonot olami va qushlar ko'rinishi bevosita uyg'unlashib go'zal asarlar yaratilganini ko'p bora uchratishimiz mumkin. Tasviriy san'at janrlarida ham bunday o'xshashlik tamonlari kuzatiladi.

**Afsonaviy janr.** Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar voqea, hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, norasida qanotli bolalar, uch boshli ajdarlar,

yarmi odam, yarmi ot “kentavrlar”, yarmi ayol yarmi baliq, rusalkalar, yarmi ayol yarmi qush jonzotlar, odam shaklidagi shoxli ko’zi bitta bahaybat devlar kabilar tasvirlanadi.

## Ibtidoiy jamoa tuzumi davri san’ati.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o’z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo’ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo’lib yashash va mehnat qilishga da’vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini, hayotning ilk bosqichidayoq sezdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o’rganishga boshladi. Madaniyat va san’at ravnaqiga zamin yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy-anjomlari va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari etib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g’or va erto’la devorlariga chizilgan surat va bo’rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o’rganishning muhim manbai hisoblanadi. San’at qachon va qanday paydo bo’lgan? San’at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo’ydi. San’atning yuzaga kelishi insonning ob’ektiv voqelik to’g’risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o’z avlodi tajribalaridan bahramand bo’lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da’vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Arxeologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi:

*1. Tosh asri - eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo’lgan davr.*
*2. Mis va bronza asri - eramizdan avvalgi 3-2 ming yillik.*
*3. Temir asri - eramizdan avvalgi 1 ming yillik.*

H’aykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash keng o’rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. g’arbiy Evropadan (Avstriya) topilgan “Villendorf Venerasi” deb nomlangan haykal mashhurdir. O’aykal hajm jihatidan katta emas, (balandligi 0,06 m.) lekin ko’rinishi jihatidan

monumental. O'aykalda ortiqcha detallar yo'q. Ichki kuch-qudratga to'la haykalda bosh qismi bir oz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q, lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Mezolit yoki o'rta tosh asrida odamlar katta bo'lmagan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta er maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi.

O'q, kamon-yoy, qayiqlarning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yasay boshladilar.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. "Kiyiklarni ovlash" (Ispaniya) suratlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga halaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. O'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjon (Kobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, konstentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingin shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi.

Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va h.k. Bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalarida bo'lib, odamlar misni qalay, qo'rg'oshin, rux yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o'rganib oldilar. Bronza qurollar, yarog'-aslaha, zebu ziynat yasash uchun asosiy material bo'lib qoldi. Er yuzida

bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma xalq va elatlar boshidan kechirdi. Lekin bu asr ba'zi xalqlarda (masalan, Eron, Mesopotamiya, Kavkaz, O'rta Osiyo) bir muncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillar o'rtalarida boshlangan bo'lsa, boshqa erlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Qrimda) eramizdan avvalgi 3 va 2 minginchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Xindiston, Evropada eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda sodir bo'ldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim g'alabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi, mehnat unumdorligini oshirib, qo'shimcha mahsulot to'planishini ta'minladiki, bu o'z navbatida inson ma'naviy olamining o'zgarishi va boyishiga olib keldi. O'rta Osiyo erlarida bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu erlarda materiallardan buyumlar ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg'onadan topilgan bilakuzuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan.

Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Temir asri. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi bo'lgan temir asri, "harbiy demokratiya" insoniyat ma'naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-tarojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan temir, tosh va qisman bronza buyumlarni hayotdan siqib chiqardi. O'z xususiyati jihatidan mustahkam bo'lgan bu metall ishlab chiarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdorligini kuchayishiga samarali ta'sir qildi, ayniqsa, dehqonchilik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Temir asrida ham amaliy-dekorativ san'at etakchi o'rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarning keng ko'lamda ishlatilishi uning sifatini o'zgartirdi, yangi tur va formalarni yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozistiyalardan foydalanish tendenstiyalari rivojlandi.

# 2-MAVZU: QADIMGI DUNYO SAN'ATI. QADIMGI SHARQDAGI QULDORLIK DAVLATLARI SAN'ATI. QADIMGI MISR SAN'ATI. OLD OSIYO SAN'ATI.

## Qadimgi dunyo san'ati.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik formastiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Quldorlik formastiyasining maydonga kelishi tarixiy zarurat bo'lib, avvalgi formastiyaga nisbatan progressiv ahamiyatga ega edi. U ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Qullarni ekspluatastiya qilish aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratib yubordi.Bu esa, o'z navbatida inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar sinfsiz jamiyat davrida san'at insonning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va sinfiy kurash ijtimoiy hayotda muhim o'rin tuta boshladi. Ijtimoiy hayotning murakkablashishi san'atni obrazli bilish asosida kengaytirdi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zamirida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi. San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi.

Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqeligini obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

## Qadimgi sharqdagi quldorlik davlatlari san'ati.

Qadimgi Sharq iborasi shartli bo'lib, odatda qadimgi Grek-Rim davlatlaridan Sharqda va Janubda joylashgan geografik mintaqa nazarda tutiladi. Shimoli-Sharqiy Afrikada Tunisdan (bu erda qadimgi Karfagen davlati mavjud bo'lgan) to Yaponiyagacha cho'zilgan O'abashistondan (Efiopiya) Kavkaz tog'larigacha, Orol

dengizining janubiy qirg'oqlaridan Xindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya erlarigacha o'z ichiga qamrab olgan bu katta maydonda qadim paytlarda bir qancha yirik quldorlik davlatlari mavjud bo'lgan. Ular jahon san'ati tarixi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Qadimgi Misr podsholigi, Old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi.

Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu yerlarda sinfiy jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi. Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt hunarmandchilikning bir qismi sifatida qolaverdi. Ishlangan asarlarning texnik tomoniga alohida e'tibor berish sezilarli darajada bo'ldi. Sharq san'atining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Albatta, Sharq san'atida hayot ko'rinishini hayotiy shakllarda, tub mohiyati bilan aks ettiruvchi asarlar borligini inkor etib bo'lmaydi, (masalan, Misr va Old Osiyo portretlari) lekin bu umumtaraqqiyot fonida ma'lum davrning yorqin yulduzlari yoki bosqichi sifatida paydo bo'lib, yana so'nadi.

## Qadimgi Misr san'ati.

Afrikaning Shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr Arab Respublikasi erlarida juda qadim paytlarda (er.av.VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda shu erda er yuzida birinchi sinfiy jamiyat kurtaklari nish urdi, quldorlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri-3000 yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib to Makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ning yurishi bilan uning ellinistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi. Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olgan bu davr mobaynida tasviriy va amaliy san'at,

me'morchilikning nodir durdonalari yuzaga keldiki, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi va yuksak badiiyligi bilan kishilarni hayajonlantiradi. Qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan uzviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morchilik esa san'atlar ichida etakchi o'rinni egallab, ularning xarakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Eramizdan avvalgi XXVII asrlarda Misr tarixida eng gigant piramidalar qurildi. Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasidir. Balandligi 146,6 metr, asosi esa 233 m. Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidasi 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lgan yo'lni qurish uchun esa 10 yil ketgan.

Fivadash Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morchilik majmualaridandir. Karnak (er.av.XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalari (er.av. XV asr, me'mor kichik Aminxotep) me'morlar birinchi bor ochiq hovli atrofini kolonadali echib, yangi podsholik me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini shakllanishiga asos soldilar. Bu majmualarda Qadimgi Misr me'morlik an'analarining muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador bo'lgan me'morchilikning yangi ko'rinishlari namoyon bo'ldi. Tasviriy san'at. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi va sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi bilan u boshqaruvchi sinfning kuchli ideologik quroliga aylandi.Dinastiyagacha bo'lgan davrdan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at namunalari etib kelgan. Shular ichida turli diniy-magik marosimlar o'tkazishda bo'yoqlar qorishtirish uchun foydalanilgan yassi, yupqa, kul rang, yashil, qora tosh-shifer plitalar alohida o'rin egallaydi.

Rassomlikda yangi mavzular ham keng o'rinni egallay boshladi. Rassomlar har bir obraz xatti-harakatini tabiiy va go'zal bo'lishiga e'tibor bera boshladilar. Mayda plastinada janrli kompozistiyalar yaratish, odamlarni harakatda ko'rsatish hollari, oddiy kishilar mehnatini tasvirlash bu davrda keng rivojlandi.

Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri yangi podsholikka to'g'ri keldi. Rassom va haykaltaroshlar zadagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis relef va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asrlar mobaynida saqlanib

kelayotgan kanonlardan chetga chiqib hayotiy kompozistiyalar yaratdilar, emostional tomonlariga e'tibor qaratdilar.

Amaliy dekorativ san'ati borasida ham misrliklar ajoyib namunalar yaratib qoldirdilar. Ganch va toshlardan yasalgan ajoyib ko'zalar, inkrustastiya uslubida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan bezak buyumlar, nodir daraxt yog'ochidan yasalib, oltin va fil suyagi bilan bezatilgan mebellar qadimgi podsholik davridayoq yuksaklikka erishdi. O'rta va yangi podsholik davrida esa u yanada nafislanib bordi. "Oqib borayotgan qiz" deb nom olgan pardoz qoshiqchasi shu o'rinda diqqatga sazovordir.

Eramizning 1000 yillaridan boshlab Misr erlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini bir muncha susaytirdi. Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar, so'ngra er.av. IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Misr erlarining bosib olinishi uning o'ziga xos san'atida asta-sekin so'nish va Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilib ketishiga sabab bo'ldi.

Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti jarayonida alohida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql zakovat, bilim bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy maktabining ajoyib durdonasi hisoblanadi. Bu namunalar o'zidan keyingi jahon san'ati taraqqiyoti uchun taqlid maktabini o'tadi. Grestiya, Rim xalqlari bu san'atdan bahramand bo'lib, uni har tomonlama o'rgandilar, davrga mos asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

## Old Osiyo san'ati.

Dajla va Efrot daryolari vohasida, O'rta yer dengizi havzasining sharqiy sohillari hamda kichik Osiyoning markaziy tog'lik rayonlari hududida eramizdan avvalgi Urartu, Bobil kabi davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bu davlatlarning so'nggisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539 yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osiyoning qadimiy tarixi tugallanadi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san'ati singari keng va rang-barang. Bu yerda hashamatli saroy va ibodatxonalar

qurildi. Dumaloq haykaltaroshlik va relefda ajoyib o'rta dinamik, plastik go'zal asarlar yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam etib kelgan. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil qilgan Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o'rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, me'morlik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va metallardan etarli bo'lmaganidan deyish mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 4000-300 yillardayoq bu yerda o'ziga xos san'at paydo bo'lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu yerda yozuv paydo bo'ldi, me'morchilik turlari yuzaga keldi, hunarmandchilik rivoj topdi.

Old Osiyo san'atida ham monumental me'morchilik etakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan.

Old Osiyoning qadimgi davrga xos bo'lgan tasviriy san'at xususiyatlari Shumer va Akkad davlatlarida (er.av. 4000 yillik oxiri) ko'rinadi. Bu yerning haykaltaroshligi va mayda plastikasi misrliklar haykaltaroshligiga nisbatan bir muncha sodda bo'lsa ham, lekin o'zining ifodali ishlanganligi bilan esda yaxshi qoladi. Releflarda esa tarixiy voqealar, jang yurishlari ishlangan. Bu yerda dumaloq haykaltaroshlik va gliptika keng tarqalgan. O'aykallar ko'p hollarda yorqin bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lib, inkrustastiya uslubida ishlangan haykallarni eslatadi. Monumental haykaltaroshlik asarlarida har bir tasvirlanuvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, ichki dunyosini yaratishga intilish seziladi. Ur shahridagi topilma ayol boshi haykali (er.av VI asr), Lagash hokimi Gudea haykalida shu xislatlarni sezish mumkin.

"Naramsin stellasi" (er.av. 2300 yillar) davrining mashhur asarlaridandir. U podsho Naramsinning tog'li qabilalar ustidan erishgan g'alabasiga bag'ishlanadi. Bir to'da jangchilarga bosh bo'lib ketayotgan Naramsin va jangchilar harakati tabiiy chiqqan, tog' manzarasi, tabiat ko'rinishi ham relef kompozistiyasi hayotiyligini oshiradi.

Eramizdan avvalgi I yillikda Ossuriya yirik quldorlik davlatiga aylandi. Eramizdan avvalgi VII asrga kelib, u butun Old Osiyoni o'ziga bo'ysindirib oldi, yagona davlat tashkil etdi.

Shu davrda hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi, suronli janglar, ov manzaralarini ifodalovchi hayajonli bo’rtma tasvirlar yaratildi.

Dur-Sharruken (hozirgi Xorsabod)dagi Sargon II saroyi xarobalari (er.av. VIII asrning ikkinchi yarmi) shu davr monumental me’morchiligining xarakterli tomonini ko’rsatishda muhim o’rin tutadi. Bu saroy balandligi 14 m. sun’iy tepalikka qurilgan bo’lib, u qalin devor bilan o’ralgan. Saroy mehmonxonasi, yotoqxona va diniy marosimlarga mo’ljallangan xonalardan iborat bo’lib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirishgan. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qanotli, odam boshli qo’tos o’rnatilgan. U haykal tabiiy kuchlar ramzi bo’lib, podshoni “yomon ko’zdan” asrash uchun xizmat qilgan. Saroy xonalari devoriy surat va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda podshoning harbiy yurishlari va afsonaviy qahramon Gilgamish qahramonliklari ifodalanadi.

Eramizdan avvalgi VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladi. Navuxodonosor II (er.av. 605-565 yillar) podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilishi ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi reja asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi qalin devor bilan o’rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo’lib, ular ichida Ishtor darvozasi o’zining ko’rkam, serhashamatligi bilan ajralib turardi. Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yo’l boshlanar edi. Bosh ibodatxona yonida esa 90 metrlik katta Bobil minorasi qurilgan edi. Navuxodonosor II ham serhasham, bezakka boy bo’lib, “osma bog’lar” qo’ynida ertaknoma ko’rinishni kashf etgan edi. Bobil san’ati uzoqqa cho’zilmadi. U eramizdan avvalgi 539 yili Eron qo’shinlari tomonidan bosib olindi. Shu bilan Old Osiyo xalqlari qadimiy san’ati tarixi umri tugadi.

# 3-MAVZU. TASVIRIY SAN'AT MUZEYLARI

## Jahonning eng yirik tasviriy san'at muzeylari

**Badiiy muzeylar.** "Muzey" yunoncha "muzeyon" so'zidan kelib chiqan bo'lib qadimgi Yunon afsonalariga ko'ra san'at va fan ma'budalari hisoblangan muzalar uchun mo'ljallangan muqaddas joy ma'nosini anglatadi.

"Muzey" so'zi Uyg'onish davrida rasmiy tus oldi. Badiiy muzeylarda asosan tasviriy va dekorativ amaliy san'at asarlari to'plandi, saqlandi, namoyish etildi va ta'mirlandi.

Dunyoda birinchi bo'lib davlat muzeyi huquqini Londondagi Britaniya muzeyi olgan edi. Dastlabki muzeylar Evropada tashkil etilgan bo'lsa, Sharqda esa XIX-XX asrlarda paydo bo'ldi. Xususan, Dehlida Hindistonning milliy muzeyi (1948), Pekindagi Gugun muzeyi (1914), Yaponiyada Tokio milliy muzeyi (1871) v.b. Badiiy muzeylar orasida tasviriy san'at muzeylari bilan bir qatorda maxsus amaliy san'at muzeylari ham bor. Shuningdek, tasviriy san'atning u yoki bu turi yoki oqimga bag'ishlangan muzeylar ham mavjud. Hususan, Parijga bir muzey impresionist rassomlar ijodiga bag'ishlangan.

**Britaniya muzeyi.** Dunyoning eng yirik muzeylaridan biri bo'lib, u London shahrida joylashgan. 1823-1847 yillarda me'mor R.Smerk tomonidan mahsus qurilgan. Bino klassistizm stilida yaratilgan bo'lib, unda ibtidoiy jamoa yodgorliklaridan tortib xozirgi zamon rassomlarining asarlarigacha o'rin olgan. Muzeyda qadimgi Sharq, Evropalik san'atkorlarning asarlari saqlanadi. qadimgi yunonistonlik Fidiy va uning shogirdlari yaratgan asarlar, qadimgi Misrda yaratilgan ishlar ham bor. Muzey xonalarida Angliya sayoxatchilarining Afrika, Osiyo, Amerika, Okeaniyadan olib kelgan etnografik buyumlari ham namoyish etiladi. Shuningdek, bu muzey ajoyib rasm va miniatyuralar bilan bezatilgan, kamyob qo'lyozma kitoblar ham saqlanadi.

**Drezden galereyasi.** Germaniyaning Drezden shaharida joylashgan. Bu muzey binosi 1847-1854 yillarda me'mor K.Xenel tomonidan mahsus qurilgan. Lekin galereya 1860 yilda ochilgan. Uning dastlabki eksponatlari Rafaelning "Sikstin Madonnasi", Jarjonening "Uyqudagi Venera" asarlari edi. Shuningek, muzeyda

Rembrandt, A.Dyurer, Tistian asarlari ham bor. Keyinchalik muzey Evropa rassomlari va haykaltaroshlarining asarlari bilan boyib bordi.

**Luvr muzeyi.** Franstiyaning Parij shahrida joylashgan. Bu bino o'rta asarlarda qo'rg'on keyinchalik qirollar saroyi bo'lgan. Muzey dunyoning eng yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. Muzeydagi ishlarning asosini Angliya qirolligida to'plangan asarlar tashkil etgan. Ular rangtasvir, haykaltaroshlik, dekorativ-amaliy san'at asarlaridir. Muzey 1791 yilda milliy muzey tusini olib, 1793 yilda birinchi bor omma uchun o'z eshiklarini ochgan. Muzeydan qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim, Misrda yaratilgan ishlar ham o'rin olgan. Franstuz xalqi bu muzeyda Leonardo Da Vinchi, Mikelenjelo, Rafael, Tistian, Rembrandt, N.Pussen, E.Delakrua va boshqa bir qator dunyoga mashhur san'atkorlarning asarlari borligidan faxrlanadi.

**Metropoliten-muzey.** AqShning Nyu-York shahridagi dunyoning eng yirik muzeyi. U 1970 yilda tashkil topgan. Muzeydagi ekspozistiyalarning asosini turli davrlarda xususiy shaxslar tomonidan tortiq qilingan asarlar tashkil etadi. Muzeyda 3 mln.ga yaqin jaxon san'atiga oid asarlar saqlanadi. Uning asosiy binosidan tashqari ko'plab filiallari ham bor, xususan, uning rangtasvir va haykaltaroshlikdan tashqari amaliy san'at, badiiy fotoga oid alohida bo'limlari ham mavjud. Unda dekorativ amaliy san'at, musiqa asboblari, kitoblar, liboslar, bolalar rasmlari bo'yicha alohida muzey bo'limlari ham bor.

Muzeydan Amerika, Afrika, Tinch okean orollari xalqlari san'ati, qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari xalqlarining san'at asarlari o'rin olgan.

Muzeyda dunyoga mashhur rassomlardan Rafael, Tistian, El Greko, Velaskes, F.Goyya, F.Xals, Rembrant, K.Mone, O.Ranuar, P.Sezann, P.Gogen, P.Pikasso kabi ko'plab sanatkorlarning asarlari saqlanadi.

**Erimitaj.** Rossiyaning Sant-Peterburg shahridagi dunyoning eng yirik madaniyat muzeylaridan biri. Muzey 1764 yilda tashkil topgan deb hisoblanadi. Lekin muzey tarzida 1852 yilda ochilgan. Erimitaj "Birlashgan joy" ma'nosini bildiradi. Muzeyda 2 mln. 700 mingdan ortiq kollekstiya bor. U olti bo'limdan tashkil topgan:

1. Ibtidoiy madaniyat tarixi. 2. qadimgi dunyo. 3.Sharq madaniyati va san'ati tarixi. 4. Rus madaniyati tarixi. 5. /arbiy Evropa san'ati tarixi. 6.Numezmatika (chaqa-tanga, medallar) tarixi.

Muzeyda rangtasvir, haykaltarosh, grafika, dekorativ-amaliy sanatga oid eksponatlar bor. Unda Leonardo da Vinchi, Rafael, Tistian, Velaskes, Goyya, Rubens, Rembrandt, N.Pussen, O.Renuar, A.Matiss, P.Pikasso, Mikelanjelo, O.Roden kabi dunyoga mashhur rassom va haykaltaroshlarning asarlari saqlanadi.

## O'zbekistonning tasviriy san'at muzeylari

### O'zbekiston davlat tasviriy san'at muzeyi

1918 yilda Toshkentda tashkil topgan. U asosan knyaz N.Romanov saroyidagi 100 ga yaqin kollekstiya asosida vujudga kelgan. Shuningdek eksponatlar Turkiston o'lkashunoslik muzeyining badiiy bo'limidan ham olingan. Keyinchalik eksponatlar Moskva va boshqa shaharlarning muzeylarining fondidan keltirilgan ishlar hisobiga boyigan. Bular orasida K.Bryulov, V.Tropinin, I.Repin, V.Serov, I.Levitan asarlari ham bor edi. Bu asarlar orasida Tretyakov galereyasida, Rus muzeyidan va shaxsiy kollekstiyalardan olib kelingan ishlar ham mavjud. Muzey fondining katta qismi O'zbekistonda yashab ijod etgan rassomlarning asarlaridan tashkil topgan. Xususan, P.Benkov, O.Tatevosyan, V.Ufimstev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O'.Tansiqboev, A.Abdullaev, Ch.Axmarov kabi bir qator rassomlarning ishlari shular jumlasidandir. Muzeyda Italiya, Ispaniya, Germaniya, Niderlandiya, Finlandiya, Gollandiya, Franstiya, Angliya, shuningdek, Sharq san'atiga oid asarlar ham ko'p.

Muzey o'zbek amaliy san'atning barcha turlariga oid boy kollekstiyalarga ham ega.

Muzeyda hozir 40 mingdan ortiq asarlar bor. Unda ta'mirlash ustaxonasi, foto labaratoriya, ko'rgazma tashkil etish bo'limlari ishlab turibdi.

**Tretyakov galereyasi.** Tretyakov galereyasiga Moskvalik rus savdogari P.Tretyakov asos solgan. U o'zi va ukasi

S.M.Tretyakov tomonidan to'plangan san'at asarlari hisobiga 1893 yilda yaratilgan. P.Tretyakovni tasviriy san'atga nisbatan ixlosi kuchli bo'lib, o'zi yashayotgan uyi yoniga muzey uchun maxsus bino qurdirgan. Muzeyni ochilishi arafasida Tretyakov tomonidan yig'ilgan san'at asarlari ikki mingga yaqin edi.

Muzeyda qadimgi rus rangtasviriga alohida o'rin ajratilgan edi. Unda Andrey Rublev, I.Nikitin, F.Rokotov, D.Levistkiy, O.Kiprenskiy, V.Tropinin asarlari ham o'rin olgan edi. Muzeyningalohidazali mashhur rus rassomi A.Ivanovning "Xristning halqga ko'rinishi" va K.Bryulov tomonidan yaratilgan portretlar uchun ajratilgan.

Galereyada XIX asr rus rangtasvirida o'chmas iz qoldirgan A.Venestianov, I.Kramskoy, V.Vasnestov, V.Vereshagin, V.Surikov, I.Repin, I.Shishkin, I.Levitan asarlari uchun katta o'rin berilgan. Bu rassomlar asarlari orasida A.Savrasovning "qora qarg'alar uchib kelishdi", V.Surikovning "Morozova boyvuchcha oyim", I.Repinning "Kurs guberniyasidagi xaj yurish", I.Levitanning "Mart", V.Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli suvratlari galereyaning eng qadrli ishlaridan hisoblanadi.

Tretyakov galereyasida 1932 yildan boshlab yaqin xorijiy mamlakatlar san'ati namoyish etila boshlagan. Unda Boltiq bo'yi, Kavkaz, O'rta Osiyo respublikalari, shuningdek, Ukraina, Beloresiya, Moldaviya rassomlarining ijodi doimiy o'rin oldi. Ayniqsa, T.Salaxov (Ozarbayjon), M.Saryan (Armaniston), T.Yablonskaya (Ukraina), O'.Tansiqboev (O'zbekiston) ning asarlari alohida o'rinni egalladi.

Galereya Rossiyaning eng yirik muzeylaridan biriga aylangan bo'lib, unda halqni estetik ruhda tarbiyalash bo'yicha map'ruzalar o'tkaziladi, rassomlar bilan uchrashuvlar o'tkazib turiladi.

Jahonning mashhur badiiy muzeylari qatoriga Parijdagi hozirgi zamon san'ati Milliy muzeyi (1937), Impressionistlar muzeyi (1947), Rim muzeyini ham kiritish mumkin. Rim muzeyida Xindiston va Sharqiy Osiyo san'atiga oid asarlar saqlanadi va namoyish etiladi.

Davlat tasviriy san'at muzeylari va galereyalari Ispaniyaning Madrid, Angliyaning London, Chexiyaning Praga, Vengriyaning Budapesht, Shvestiyaning Stokgom, Germaniyaning Myunxen, Ukrainaning Kiev shaharlarida ham mavjud.

Rossiyada ermitaj va Tretyakov galereyalaridan tashqari Sank-Peterburgda Rus muzeyi, Moskvada Pushkin nomidagi tasviriy san'at muzeyi ham bor.

XIX-XX asrlarda Sharq mamlakatlarida ham yirik muzeylar ochilgan. Xususan, Dehlida Xindiston milliy muzeyi (1948), Xitoyda Pekin Gugun muzeyi (1914), Yaponiyada Tokio milliy muzeyi (1871) shular jumlasidandir.

Tasviriy san'at muzeylari jahonning deyarli barcha mamlakatlarida bor.

## Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi

Mashhur muzey qoraqalpog'istonda yagona bo'lib, O'zbekistonning yirik tasviriy san'at muzeylaridan biri hisoblanadi. U 1966 yilda Nukus shahrida tashkil topgan bo'lib, u qoraqalpog'iston tasviriy san'atini rivojlantirishga katta xissa qo'shgan rassom I.Savistkiy nomi bilan ataladi.

Muzeyda halg' amaliy san'ati, Xorazm san'ati, XX asr o'zbek, rus, qoraqalpoq rangtasviri va xaykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlari bor. Shuningdek, unda kutubxona va ta'mirlash ustaxonasi ham ish olib boradi. Uning umumiy fondi 85,000 nusxadan oshadi.

Mazkur badiiy madaniyat maskani qadimgi va xozirgi zamon rassom, xaykaltarosh, amaliy san'at ustalarini asarlarini yig'ish, ular bilan halqni tanishtirish, doimiy va davriy ko'rgazmalar tashkil etish ishlarini amalga oshiradi.

Muzeyda "Nukus muzeyining do'stlari" nomli klub ham mavjud bo'lib, uning a'zolari halq orasida ko'chma va davriy ko'rgazmalar tashkil etish bilan shug'ullanadailar.

Mazkur maskan O'zbekistonning tasviriy san'at hamda halq amaliy san'ati muzeylari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Shuningdek uni Rossiya, Germaniya, Franstiya, Italiya, Yaponiya, AqSh tasviriy san'at muzeylari bilan ham aloqalari bor.

Xozirda muzeyda XX asr boshlarida O'zbekistonlik o'zbek va rus rassomlari ijodi, qadimgi Xorazm san'ati namunalari shuningdek Rossiyaning XX asrda yashab o'tgan ayrim rassomlarini asarlari namoyish etib kelinmoqda.

Ular orasida O’rta Osiyo rassomlaridan A.Volkov, Usto Mo’min (A.Nikolaev), M.Kurzin, N.Karaxan, O’.Tansiqboevlarning yuqoribadiiy saviyada yaratilgan asarlari bor. Shuningdek, Rossiyalik mashhur xaykaltarosh va rassomlaridan I.Grabar, V.Muxina, A.Shevchenkolarning ijod namunalari ham muzey eksponatlari qatoridan o’rin olgan.

qoraqalpog’iston tasviriy san’atini rivojlantirishda o’zlarining beqiyos katta xissalarini qo’shgan va qo’shayotgan ijodkorlardan I.Savistkiy, q.Soipov, D.Turanniyozov, J. quttimuradov, J.Izentaev kabilarning asarlari muzeyning yuqori peshtaxtalaridan o’rin olgan.

Mazkur dargoh O’zbekistonda shuningdek jahonning mashhur muzeylarida o’tkazilayotgan ko’rgazmalarda doimiy ravishda qatnashib kelmoqda.

# 4-MAVZU. CHET EL RASSOMLARI IJODIDA TASVIRIY SAN’AT JANRLARI

*Leonardo da Vinchi. Frans Xals. Rembrant. Nikola Pussen. Klod Lorren*

## Leonardo da Vinchi.



**Leonardo da Vinchi** -birinchi psixologik portret asoschisi Yuqori Uyg’onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san’atning ko’pgina turlarida o’z kuchini sinab ko’rdi, matematika, mexanika, fizika sohasida ilg’or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san’at hayotni bilish vositasi bo’ldi. Uning real voqelik asosida ishlagan suratlari keyinchalik ilmiy asarlari uchun illyustrastiya vazifasini o’tadi. Ijodkor xarakteriga xos bo’lgan bu xususiyat u yaratgan rang-tasvir asarining o’ziga xos tomonlarini belgilaydi. Uning har bir asari hayotni o’rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo’lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Rassomning «Gul ushlagan oddiy florenstiyalikning uyidagi baxtni, ona va bola shodligidagi go’zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo’ladi. Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqqan, nur va go’zallikka intilgan insonni sevgan rassomning dunyoqarashini namoyon qiladi. Milan fransuz qo’shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florenstiyaga qaytib keladi. Bu erda «Angiari oldidagi jang» devoriy suratining kartonini yaratadi, shuningdek, o’zining mashhur asari «Mona Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mona Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirining mashhur yodgorligidir.

*Mona Liza*



Bu portret bilan Evropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi. Aslida xotirjam, o'z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr ko'zi bilan boqib o'tirgan florenstiyalik ayol tasvirlangan. Uning ortida murakkab tabiat ko'rinishi aks ettirilgan. Ayol shu tabiatning ajralmas qismi va u bilan uzviy bog'langan. Sochlari, kiyimlaridagi buklanish va jimjimalar go'yo tabiat ritmini qaytarayotgandek tuyuladi. Ana shular fonida mayin va nozik qilib ishlangan ayol qiyofasi, nihoyatda chiroyli qo'llari yanada latofatli va go'zal bo'lib tuyuladi. Bu latofat va go'zallik uning nigohidagi samimiylik va mehribon-lik bilan uyg'unlashib, ideal go'zal inson qiyofasini gavdalantiradi.

**Frans Xals**



**Frans Xals (1560-1666).** Golland realistik portret san'ati asoschisi, xarakteri jihatidan maishiy janrda guruh portret janirini yaratib, jahon portretchilik san'atini boyitgan novator san'atkor Frans Xal's Antverpen shahrida tug'ilgan. Garlem shahriga ko'chib kelib, butun umr shu erda yashagan. XVII asr 10-30 yillarida yaratgan portretlari to'g'risida fikr bildirishdan boshlandi. Xals o'zining barkamol psixologik asarlarini yaratgan. Uning asarlarida tanqidiy qarashlar yaqqol ko'rina boshlagan Golland sanatining eng gullagan davri XVII asr 40-60 yillariga to'g'ri keladi. Bu rivoj buyuk golland rassomi Rembrandt Xarmens van Reyn (1606-1669) nomi bilan bog'liq. Rembrandt golland san'atining yutuqlarini umumlashtirib, uni

yangi yuksak pog’onaga ko’tardi hamda o’z davri san’atkorlaridan asarlari mavzusining rang - barangligi, ranggasvir, gravyura (ofort) va qalamsuratda yuksak maxoratli asarlar yarata olishi bilan o’zib ketdi. Uning qahramonlari kuchli irodaga ega, ma’naviy boy, og’ir shart - sharoitda ham insoniylik fazilatlarini saqlay oladigan shaxslardir.

## Rembrandt



**Rembrandt** 1606 yili Leyden shahrida tegirmonchi oilasida tug’ilgan. Shu erda lotin maktabini tugatgach, Leyden universitetiga qabul qilingan. Lekin Rembrandt u erda bir yilcha o’qigan, holos. Rassomlikka bo’lgan qiziqish tufayli Yakov Svanenbyurx degan o’rta hol rassom ustaxonasida uch yil, keyinrok, esa Amsterdamda Piter Lastman ustaxonasida bir yarim yilcha tasviriyot asoslarini o’rgangan. So’ng o’z shahriga qaytgan. 1625 yili o’z ustaxonasini tashkil etgan. Rassomning ilk ijodi 20-yillar so’nggi va 30-yillar boshlariga to’g’ri keladi. Rassom bu yillarda avtoportret sohasida ko’p mehnat qilib inson mimikasi va uning kishi ichki dunyosi bilan aloqasini tushunib etishga harakat qiladi. Ofort san’atida dastlabki mashqlarini boshlaydi. San’atkor 1632 yili Amsterdamga ko’chib keladi va tezda eng mashhur rassomga aylanadi. Buyurtma ishlarning ko’payib borishi uning moddiy mustaqil bo’lib, atrofiga shogirdlarni to’plashiga imkoniyat yaratdi. Rassomning bu yillarda yaratgan asarlari ko’tarinki ruxda ishlangan. U kompozistiyalarini yorqin bo’yoqlarda tasvirlaydi, qimmatbaqo buyumlar, gul va billurlar, liboslar uning yaratgan asarlarga quvonch va shodlik tuyg’ularini kiritadi. "Adashgan o’g’ilning qaytishi" rassomning so’nggi asarida hayot qanchalik murakkab ekanligini aks ettirgani holda, insonga xos fazilat - uning kechiruvchinligini iloxiylashtiradi. Asarda ota oyog’iga yiqilgai o’g’il va uni mehri va iztirob bilan qarshilayotgan ota obrazi tasvirlangan. Otaning o’z o’g’li qilmishlarini kechirib, unga mehr va achinish bilan qarshi olayotganini rassom zo’r mahorat bilan ochib beradi. Otaning

qo’llari harakatida uning mehribonligi sezilib turadi. Aksincha, o’g’ilning yalangoyoq, kir, yirtilgan, juldur kiyimida tiz cho’kkan holatda tasvirlab, afsuslanishni aks ettiradi. Kompozistiyada tasvirlangan boshqa obrazlarning sokin, osoyishta, chuqur hayolga cho’kkan holatlarini aniq ko’rsatilishi bo’layotgan voqea mazmunini yanada to’liqroq ochilishiga yordam beradi. Rembrandt qalamsurat va ofortchi sifatida ham mashhur.

## Nikola Pussen



**Nikola Pussen**, Klod Lorren-manzara janrining asoschilari. XVII asr fransuz san’atining yirik namoyondasi Nikola Pussen (1594-1665) klassistizmning yirik vakili sifatida uning butun imkoniyatlarini ro’y-rost ochib berdi. N.Pussen Fransiyaning shimoliy shaharchalaridan birida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Tasviriy san’at asoslarini shu erdagi rassomlardan o’rgandi. 1610 yil boshlarida Pussen Italiya bo’ylab sayohat qildi, uyg’onish davri san’ati namunalari bilan tanishdi. Ayniqsa Rafael ijodi unda katta taassurot qoldirdi. Rassomning diniy voqealarga ishlagan suratlarida barokko ta’siri, uning mifologiya asosida ishlagan suratlarida Tistianga xos rang his qilish hayotni to’laqonli anglash seziladi. Bu suratlar ko’tarinki ruhda chizilgan. Yozuv uslubi ham erkin, koloriti iliq, nurga boy. 1620 yil oxirlaridan boshlab, Pussen ijodida klassistizmning o’ziga xos tomonlari ko’rina boshladi. Ishlagan asarlarida obrazlarni ideallashtirish va kompozitsiyani aql - idrok orqali tartibga keltirishga intilish seziladi. “Tankred va Erminiya” asarida rassom amazonka Erminiyaning o’z raqibi, yaralangan ristar’ Tankredga nisbatan uyg’ongan muhabbati tasvirlanadi. Asarda yaralangan Tankredni juda ehtiyotkorlik bilan ko’tarayotgan Badrin(Tankredning do’sti) va oq otidan tushib, o’z qilichi bilan sochini kesib, yarador Tankredning yarasini bog’lash uchun harakat qilayotgan Erminiya ko’rsatiladi. Asarda ikki qarama - qarshi obraz - bir tomondan, hayotdan ko’z yumayotgan Tankred va ikkinchi tomondan, hayajonlanayotgan

Erminiya hatti - harakatlari ta'sirchan ifoda qilingan. Tankred va uning do'sti ustidagi temir niqob va hilpirayotgan Erminiya kiyimlari asarning dramatikligini oshiradi. Botib borayotgan quyoshning shafaq nurlari esa bo'lib o'tgan voqealardagi qayg'uni bildiradi. Pussen ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri voqelikni harakatda tasvirlashdir. Rassom harakatni "gavdaning tili" deb ta'riflaydi. Gavda harakati, yuzda bo'ladigan mimik o'zgarishlar, imo - ishoradan rassom shaxsning ichki dunyosini ta'riflashda foydalanadi. 1630 yillarga kelib, Pussen ijodida hayot to'g'risidagi mungli falsafiy qarashlar namoyon bo'la boshladi. Inson hayoti nihoyatda qisqa va o'tkinchi ekanligini achinish bilan ifodalaydi. 1640 yil oxirlariga kelib, Pussen manzara janriga murojaat qila boshlaydi. Tabiat ko'rinishidagi ulug'vorlik, bepoyonlik, sirga to'la holat rassomni hayajonlantiradi. Pussen tabiatni odamlarsiz tasavvur eta olmaydi. Rassom asarlarida tabiatning ulug'vor va cheksizligini ifoda qiladi. Ularda inson va tabiat uyg'unligi, inson tabiat oldida kichik zarra ekanligi talqin etiladi. Pussen ijodining so'nggi bosqichida yaratilgan Gerkules va Kakus jangi" asari syujeti I asr Rim yozuvchisi Vergiliyning "Eneida" poemasidan olingan. Unda antik qahramon Gerkulesning Kakus bilan bo'lgan jangi hikoya qilinadi. Kompozistiyada tabiat ko'rinishi asosiy o'rinni egallaydi. Mahobatli tog', baland daraxtlar, osmondagi bulutlar ulug'vor, tabiat ko'rinishini yaratadi. Shu tabiat qo'ynida tasvirlangan Gerkules va mag'lubiyatga uchragan Kakus ko'rinishi bu ulug'vorlikni buzmagandek sokin va xotirjam. Shu xotirjamlik va tabiat ichidagi ziddiyatlarda rassom hayot mazmunini ko'radi. Pussenning yil fasllariga bag'ishlangan asarlari inson hayotining to'rt fasl ramzi sifatida talqin etiladi. Pussen ijodida qalamsurat ham alohida o'rin egallaydi. Bu suratlar bo'lajak asarning yaratish paytida ishlangan bo'lib, rassom har bir asari kompozistiyasi ustida uzoq vaqt ishlaganligini va kompozistiya yaratish borasida izlaganligini ko'rsatadi. Pussen ijodi franstuz san'ati tarixida muhim o'rinni egallaydi. U yaratgan mumtoz uslub franstuz san'atida keyingi asrda davom etdi, rivojlantirildi.

## Klod Lorren



**Klod Lorren (1600-1682)** Klassistizmning yirik vakili, klassik manzarani taniqli namoyandasi Klod Jelle (Lorren uning adabiy taxallusi) yoshligida Italiyaga kelib qoldi. Keyingi hayoti Rim bilan bog'liq bo'ldi. Lorren asosan klassik manzarada ijod qilgan. Uning manzaralari lirik xis tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ular ko'p hollarda mungli kayfiyatda tasvirlanadi. Rassom asarlarda tabiat tinch holatda ko'rsatiladi. Uning asarlarida yarim vayrona bo'lgan antik yoki afsonaviy me'morlik qoldiqlari ko'rkam daraxtlar fonida g'oyat jozibali ko'rinadi. Lorren klassik manzara san'atining vakilidir. Uning kompozistiyalari aniq tartibda ishlangan. Lekin bu uning realistik harakteriga putur etkazmaydi. Rassom havoga to'la bepoyon kenglikni ustalik bilan ko'rsatadi. Undagi nur va soya tovlanishlarini mahorat bilan gavdalantiradi. Rassomning "Tong", "Tush payti", "Kechki payt" asarlari o'ziga xos rang tizimida echilgan. Lorren qalamsurat san'atida ham samarali ijod qildi. Uning naturadan ishlagan suratlari hamda ofortlari o'zining hayotiyligi bilan ajralib turadi va rassomning kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Rassom klassik manzara janrining mukammal ko'rinishini yaratdi. Uning ijodi keyinchalik fransuz va Evropa san'atiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

# 5-MAVZU. O’ZBEK RASSOMLARI IJODIDA TASVIRIY SAN’AT JANRLARINING RIVOJI

*O’rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Laylo Salimjonova, Abdulhaq Abdullayev*

## O’rol Tansiqboev



**O’rol Tansiqboev** - Tansiqboyev O‘rol (1904.14.1 - Toshkent - 1974.18.4) - manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. O‘zbekiston xalq rassomi (1944). Penza rassomlik bilim yurtini tugatgan (1924). O‘zbekiston davlat san'at muzeyi qoshidagi tasviriy san'at studiyasida ta'lim olgan (1924-28). Tansiqboyevning izlanishlar davri bo‘lgan 1930-yillardagi ijodiy uslub, janr, mavzu rang-barangligi bilan ajralib turadi. Dastgoh va monumental san'atda tarixiy, maishiy va portret janrlarida asarlar yaratdi. G‘arbiy Yevropa yangi san'ati, Meksika monumental rassomlari ijodi,O‘rta Osiyo devoriy rassomligi va miniatyura san’ati uslublarini o‘rgandi va shular ta'sirida ijod qildi («O‘zbek portreti 1927, «Kurash», «Karvon» 1929, «O‘tovda»1931 va boshqalar).1951 yilda yaratgan «Jonajon o’lka” asarida O’zbekiston go’zalligini, unda tinch, yaratuvchilik ishtiyoqi bilan mehnat qilayotgan hayotini ko’rsatadi. Asarning yorqin koloriti, nur va havoga to’la kompozistiya va eng muhimi voqelikni yangicha talqin etishi asarga alohida jaziba kiritadi. Rassomning “Jonajon o’lka» asari manzara rassomchiligida yurtning badiy obrazini yaratish borasidagi harakatining dastlabki bosqichi bo’ldi. Bu asar shu davr san’atida mavjud bo’lgan hikoyanavislikdan xoli emas. Haddan tashqari mayda detallarga etibor berganligi, asar koloritida yaxlitlik etishmasligi ko’zga tashlansa ham, lekin o’sha yillar o’zbek manzara janri uchun katta yutuq edi. Shu davrdan boshlab uning mavzusi yanada kengayib boradi. O’rta Osiyo manzaralari, uning bog’u rog’larining go’zalligi rassom asarlarida o’z aksini topa boshlaydi. “Issiq ko’lda oqshom” , «Tog’dagi yaylov», “Tog’da kuz” va b. 50-

yillarning o'rtalaridan boshlab rassom asarlarida rang, asar koloriti avvalgilarga qaraganda yorqinlashib asar tasir kuchini oshirib bordi. Rassom ijodida inson mehnati bilan o'zgarb borayotgan tabiat ko'rinshlari o'z ifodasini topdi. Rassom industrial manzara borasida mehnat qilar ekan shu borada yaratilgan yutuqlarni umumlashtirgan xolda yangi erlarni o'zlashtirish mavzusiga murojat qiladi. 1957 yili yaratgan «Qayroqqum GESida tong» asari industrial manzarada yaratilgan eng yaxshi asarlardan hisoblanadi . Unda kishilarning mehnati bilan yaratilayotgan to'g'on orqali yangi qo'riq erlarni o'zlashtirayotgani, suv chiqarayotgan xalqning jasoratini ko'rsatadi. Asarning muhim tomoni shundaki rassom industrial obekt ko'rinishini ishlash bilan chegaralanmay tasvirlanayotgan obektdan go'zallik topishga intiladi. O'rinli topilgan kompozistiya va nozik rang tizimi asarga alohida joziba beradi. Ular sahar paytidagi engil shabadasi zavqini kishi qalbiga olib kiradi. Tansiqboevning «Qayroqqum GESida tong" asari Xalqaro ko'rgazmalarda ko'mish va bronza medallari bilan taqdirlandi. N.Koroxon ijodida obraz yaratish, hikoyanavislik ko'chaydi. «Jonajon o'lka» (1948) «Qadrdon dalalar» primitiv san'at ta'siri kuchli. 50-yillardan boshlab tog' manzararasi etakchi o'ringa shu borada o'zining etuk asarlarini yaratib manzarachi safatida tanildi. «Tog'da oqshom» , «Gullayotgan vodiy», «Oltin ko'z »(1961), «Tog'da ko'z», «Oltin simfoniya» (1962) yil va boshqalar. Timurovning urushdan keyingi yillarida yaratgan asarlari ko'proq Samarqandga bag'ishlangan. Uning gulga o'ralgan ajoyib tabiati, shu tabiat qo'ynida sukut saqlab yotgan noyob obidalari, o'z yumushlari bilan band odamlar bu yillarda yaratgan asarlarining mazmunini tashkil etadi. Rassomning manzarachilikdagi mahorati ham o'sadi. U tabiatning turli paytdagi holatlari-bo'lutli kunlarning nam havosi, borliqni harakatga keltiradigan shamol qudrati, uyg'onib kelayotgan tabiatning o'ziga xos tomonlarini ustalik bilan ochib beradi. "Samarqand bog'lari" (1951, DSM), "Bulutli kun" (1951, Buxoro o'lkani o'rganish muzeyi). Asta rassom lirik kayfiyatni berish hayot to'risidagi falsafiy o'y dunyoqarash larini lirik talqin etuvchi lirik manzara ustasiga aylanib bordi. Uning "Ulug'bek madrasasi. "Bahor" (1957), Bibixonim maydoni oldida», "Samarqand" (1958.DSM) kabi asarlarda ko'rish mumkin.

## Chingiz Axmarov



Chingiz Axmarov (1912-1995) - yirik bohobat uslubidagi rassom, portretchi-rassom, miniatyurachi-rassom, professor, yuzlab o‘quvchiga saboq bergan pedagog. O‘zbekiston va Tatarston xalq rassomi, Stalin mukofoti laureati. San’atshunoslik olamida “Axmarov maktabi” nomini qoldirgan inson va yirik rassom.

Chingiz Axmarov 1912 yil 18 avgust kuni Troitsk (Janubiy Ural, Rossiya) da tug‘ilgan. Axmarovlar oilasida 11 nafar farzand bo‘lgan, ular bilan ham onasi, ham otasi tarafdan buvisi va dodasi yashagan.

Axmarovlar oilasida yuqori madaniyat 19 asrdan hukm surgan, bobosi Miftoxitdindan ularga katta kutubxona meros qolib, unda turk, tatar va ozarbayjon tillaridagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblar va jurnallar ko‘p bo‘lgan. Chingiz bolaligidan “Mulla Nasriddin” nomli jurnalni yaxshi eslaydi, zero, u yerdagi suratlarni ko‘chirib chizgan, uning opalari she’r mutolaasi bilan qiziqishgan, pianino chalishgan, uyda spektakllar qo‘yib, adabiy kechalar uyushtirib, uyga mehmonlar chaqirishgan.

Chingiz to‘rt yoshidan bolalar bog‘chasiga, yetti yoshidan esa katta akalari o‘qigan maktabga boradi. Olti yoshida Chingizga Gaufning “Kichkina Muk” kitobini sovg‘a qilishadi, kitob Dmitriy Mitroxin suratlari boyitilgan edi. Mitroxinning suratlari bolakayning taqdirini belgilab berdi - albatta, rassom bo‘lishni qalbiga tugib qo‘ydi.

1927 yil boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘n besh yasharli Chinshizni perlik badiiy bilim yurtiga takliy qilishadi. Perm bilim yurtidagi imtihonda Chingiz I. A.Krilovning “Qarg‘a va tulki” masalidagi suratlarni chizadi va talabalikka qabul qilinadi. Shu yilning o‘zida Chingizning otasiga o‘g‘lining sog‘lig‘i tufayli yashash iqlimini o‘zgartirishni maslahat berishadi va Chingizlar oilasi O‘zbekistonga ko‘chib keladi - avvaliga, Qarshi, so‘ngra Samarqandga.

1931 yil Chingiz Axmarov Perm rassomchilik bilim yurtini tamomlaydi, uning diplom ishi shahar drama teatridagi F.Shillerning “Makr va sevgi” fojiaviy asariga chizilgan suratlari bo‘ldi. Mazkur asar teatrning badiiy hayotida sezilarli voqeaga aylandi va yosh rassomni turli ishlarga taklif qila boshlashdi. Diplomni qo‘lga olib, Chingiz oilasiga - sevimli Samarqandiga, uni doim chorlagan Temur maqbarasi, Go‘ri Amirga qaytadi.

Axmarovning qaytishiga Samarqandda badiiy texnikum ochilib, unga Pavel Benkov va Zinaida Kovalevskayalar rahbarlik qilishadi, akademik bilimga ega moskvalik va peterburglik ustozlar dars berishgan. Yoshgina Chingiz ham tez orada ishga kiradi, u mazkur maktabda chizmachilik va rassomchilikdan dars beradi.

1934 yilning mayida maktabdagi darslar yakunlanishi bilan Toshkentga keladi va poytaxtdagi hamkasblari bilan tanishadi. O‘z ishlarini Iskandar akaga ko‘rsatib, Chingiz kutilmaganda G‘ayratiy, Shokira Sulaymon kabi yozuvchilar va ikkita xalq ertaklari kitoblarini bezagi uchun buyurtma oladi. Nashriyotdagi faoliyati uni Abdulla Qahhor, Zilfiya, Parda Tursun, G‘ofur G‘ulom kabi yozuvchilar, dramaturg Umar Ismoilov, shoir Maqsud Shayhzodalar bilan yaqinlashtirdi. Nashriyotdagi gazeta va jurnallarda ishlab, u shuningdek, Usto Mo‘min, Boris Jukov, O‘rol Tansiqboyev, Aleksandr Volkov kabi rassomlar bilan ham yaqinlashadi. U vaqtlar Chingizning yoshi bor-yo‘g‘i 22 da edi, bu kabi o‘qimishli va qiziqarli insonlar bilan suhbat uning dididagi madaniyat va dunyoqarash kabi qirralarni shakllantiradi.

1935 yil u Leningraddagi Rassomchilik institutiga o‘qishga kirishga qat’iy qaror qiladi va u yerga o‘z hujjatlari va tanlov ishlarini yuboradi. Ammo javobni kutib qoladi va uning o‘zi Neva daryosining qirg‘oqlari tomon yo‘l oladi. Biroq Leningradda umidlari puchga chiqadi: uni o‘qishga qabul qilishmaydi - tanlov juda kuchli o‘tadi va har bir ishtirokchi orqasida kuchli rassomlar turadi. Bu zarba juda shavfqatsiz bo‘ldi, ammo Chingiz bo‘sh kelmaydi. U o‘zining rad etilgan ishlari bilan Moskvaga jo‘naydi va Lev Bruni hamda Vladimir Favarskiy kabi rassomlarga yuzlanadi, zero Toshkentda va Samarqandda ular haqida ko‘p eshitgandi. Chingizni o‘qishga iltifot bilan qabul qilishadi, uning hujjatlarini ko‘rib, “Izoinstitut”ga borishini maslahat berishadi.

1942 yil Chingiz Axmarov institutni yakunlaydi, institutni nomi Surikov nomiga oʻzgartirilgan edi. 1944-1947 yillar Axmarov A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida qoʻlyozmalar yaratadi. Ulkan va mislsiz ishi uchun Chingiz Axmarov 1947 yil 1-darajali Stalin mukofoti bilan taqdirlanadi.

1955 yil Axmarov kutilmaganda u uchun muhim boʻlmish mualliflik ishi uchun buyurtma qabul qiladi - Qozondagi opera va balet teatrining intererini shaxsan bezatish. Ham hajman, ham ijodiy gʻoyasi boʻyicha ulkan boʻlmish ish uchun Axmarov ikki yil vaqt sarflaydi.

1961 yil Axmarovning taqdiri oʻzgaradi. U Toshkentga qaytadi. U Ulugʻbek muzeyi uchun bir qator monumental-dekorativ ishlar qiladi, Beruniy nomidagi sharqshunoslik institut ayvoni uchun qoʻlyozmalar chizadi. Toshkentdagi Navoiy muzeyining binosini, Samarqanddagi “Yulduz” restoranining banketlar zalini bezaydi. Sochidagi “Oʻzbekiston” sanatoriysini, Toshkent metrosidagi “Alisher Navoiy” bekatini bezaydi. Hattoki, Krasnoyarsk shahridagi kafeni ham bezashga ulguradi - sibirliklar uchun Oʻzbekistondan hadʼya.

Ushbu yillar u Toshkent rassomchilik institutida dars berishga ham luguradi, 1964 yil esa kitob grafikasiga qaytib, Sharof Rashidovning “Kashmir afsonasi”ni bezashga ulguradi. Axmaroga shon-shuhrat, faxr va hurmat keladi. 1964 yil u Oʻzbekiston xalq rassomi boʻladi, 1967 yil esa Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor boʻladi. Oʻzbekistonning yangi hukumati uni “Vatan oldidagi xizmatlari uchun” oliy mukofoti bilan taqdirlaydi.

2007 yil Chingiz Axmarov tavalludining 95-yilligining hukumatimiz tomonidan nishonlanishi hamda rassom xotiralari kitobining nashr etilishi prezidentimizning rassom va uning ijodiga boʻlgan sevgi va hurmatdan dalolatdir.

Chingiz Axmarov 1995 yil 13 mart kuni 83 yoshida vafot etgan. Uning qabriga haykaltarosh Tojixoʻjayev tomonidan ishlangan ajoyib haykali oʻrnatilgan, dafn marosimi gavjum boʻlgan.

## Malik Nabiev- O’zbekiston xalq rassomi



**Nabiev Malik** - 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. 100-rasm. O’zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O’zbekiston halq rassomi. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi. Nabiev Malik tasviriy san’atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o’rgangach, ustoz maslaxatiga ko’ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o’qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so’ng shu erda o’qituvchilik faoliyatini boshlaydi.1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy-grafika fakultetini tugatgan. O’sha yillarda uning san’at borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og’ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g’alabani yaqinlashtirishga harakat qildi. Rassom o’z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarni tasvirlashga juda qiziqar edi. Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan ijodkor o’zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar obrazini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Ular amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarining obrazlaridir.

Ana shunday asarlardan bari 1962 yilda yaratilgan Zahiriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish maqsadida rassom ko’p yillar davomida izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan joylarda-Andijon, Samarqand, shaharlarida va Afg’oniston, Xindiston kabi shaharlarda bo’ldi. Bobir haqida yaratilgan mo’jaz rangtasvir asarlari bilan tanishdi. Rassomning ko’p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti olqishlarga sazovor bo’ldi. Beruniy tavalludiga 1000 yil to’lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e’lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi.

Bu portret YuNESKO ning ―Kur'er‖ jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarining ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi.

M.Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan ―Amir Temur portreti‖ asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M.Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi. Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lganligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Hindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Franstiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mo''jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi. Oxir oqibatda davlat arbobi, harbiy qo'mondan obrazini realistik tarzda zo'r maxorat bilan yaratishga muvaffaq bo'ldi.1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrati bosh mukofatga sazovor bo'ldi. Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halq qo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi. M.Nabiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi ―Spitamen qo'zg'oloni‖ suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga ―Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni‖, ―Jizzax qo'zg'oloni‖ kabi ishlarni kiritish mumkin. M.Nabiev na faqat rassom mohir pedagog, ustoz va etuk murabbiy hamdir. U 1960 yildan boshlab ko'p yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy-grafika fakultetida kafedra mudiri va professor sifatida faoliyat ko'rsatib keldi. Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan. Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga ―Buyuk xizmatlari uchun ordeni berilgan.

O’zbek tasviriy san’ati tarixida Malik Nabiev yaratgan asarlaridan buyuk allomalarimiz: Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Roziy, Mirzo Ulug’bek, Zahriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Ahmad Farg’oniy, Kamoliddin Behzod portretlari etukligi, inson ruhiyatini ochilishi bilan ayniqsa mashhurdir. Barcha darsliklarda va tarixiy merosimizda ushbu portretlardan foydalanilmokda. O’zbekiston tarixi muzeyida saqlanayotgan «Spitamen qo’zg’aloni», Jizzax o’lkashunoslik muzeyidagi «Jizzax qo’zg’aloni» va boshqa o’nlab tarixiy asarlari tomoshabinlarimizga yod bo’lib ketgan. Xalqimizning asl farzandlari, adolat deb bosh ko’tarib, qatag’on qilingan Fayzulla Xo’jaev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriylar qiyofalari o’ziga xos ko’rinishlarda jonlangan. Bosqinchilar bilan mardonovor olishgan Dukchi Eshonga bag’ishlangan asar. Malik Nabiev o’z xalqi hayotini puxta bilgan musavvirligini unutmaslik kerak. U ijodini o’z millati «Uzbek portreta» (1937 yil)dan boshlagandi. U ustozlari Akrom Toshkanboev va Bahrom Hamdamiylarning «Sen o’zbeksan, o’zbek rassomisan, shunday ekan, o’z xalqing hayotini chuqur o’rgan, o’zbeklarni tasvirla, keyin boshqalarni» degan vasiyatlariga amal qilgani uchun ishlari o’ngidan kelaverdi. Lekin muvaffaqiyat osonlikcha qo’lga kiritilmasligini Malik Nabiev yaxshi bilardi. Masalan, sakson yoshni qoralab qolgan bir payitda chizilgan “Sohibqiron Amir Temur” portreta o’ziga xos tarixga ega. 1941 yilda tarix muzeyiga keltirilgan Temur va temuriylarni mumyolab qo’yilgan jasadlarini o’z ko’zi bilan ko’rgan rassom uni tasvirlashda juda kiynaldi. O’y-hayollar og’ushida g’arq bo’lgan payitlaridan birida tush ko’rdi. Tushiga sohibqiron Temur kirib, go’yo uni ruhlantirgandek bo’ldi. Mana shu erda ushbu shox-asar hisoblangan Malik Nabievning «Amir Temur» portretini qisqacha taxlilini qilsak o’rinli hisoblanadi. Tarixiy shaxslar portreta borasida uzoq yillar davomidagi ijodiy tajriba, bilim va malakalar evaziga yuzaga kelgan Amir Temur portretida takrorlanmas obrazni ko’ramiz. San’at ixlosmandlari e’tiborini o’ziga jalb qilgan bu portretda Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilagn bo’lib, jiddiy xayol ogushida ekanligi, chap qovogi biroz ko’tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi. Yuz qiyofasi asosan bugdoyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismidagi chizikdar, shuningdek, burun, lab, quloq,

soqol-mo’ylablarning holati Temurning nuroniyligini ko’rsatsada, uning hali tetik va baquvvat ekani yaqqol sezilib turibdi. Ayniqsa bu holat yuzda ko’zga tashlanayotgan pishikdik, chayirlikda aniqroq ko’rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi Sohibqironni yanada salobatli qilib ko’rsatadi. Elkador qo’llari esa bamayli xotir qilichga tayangan holda. Qo’l barmoklari shunday xarakterli tasvirlanganki ular Sohibqironning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o’tganini tasdiklab turibdi. Portretdagi o’tkir va sinchkovli ko’z qarashlar rassomning Temur obrazi borasidagi chinakam izlanishlari natijasidir. Amir Temur qiyofasida magrurlik va kuch-qudratga egaligi uning xotirjam o’tirishi holatida aniq gavdalangan. Sharqona bezatilagn shoh saroyining bir bo’lagi derazadan Samarkand shaxri manzarasi ko’rinadi.  Devordagi fonda naqshin bezaklar, Sohibqiron o’tirgan saltanat kursisining badiiy ko’rkamligi, shuningdek, Amir Temur egnidagi liboslarning boy ko’rinishi tomoshabinni zamona haqida to’liqroq tushunchaga ega bo’lishida yordam beradi. Umuman musavvir Amir Temur obrazini tasvirlash borasida butun mahoratini ishga solib ulkan muvaffaqiyatni qo’lga kiritadi. Musavvirning dunyo miqiyosida qabul qilingan, YuNESKO tan olgan ishi Abu Rayxon Beruniy portreta bo’lsa, endigisi qarigan chog’ida tasvirlangan Amir Temur portreti bo’lganligi ham bejiz emas. Bunisi xam mezon sifatida qabul qilindi. Poytaxtimizdagi, Samarqand va Shahrisabzdagi, xullas, barcha yaratilgan Amir Temur haykallarida ana shu qiyofa o’z aksini topgan. Aynan shu kiyofa asosida taqvimlar, plakatlar, markalar chiqdi.

## Bahodir Jalolov - O’zbekiston xalq rassomi



**Bahodir Jalolov –** O’zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotinnng sovrindori, zamonaviy rangtasvir san’ati rivojiga hissa qo’shib kelayotgan talantli rassomlardan biridir. Bahodir Jalolov 1948 yil 27 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini

tugatgan. 1974 yilda esa I.E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshlik yillarida portret san'atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta'lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy his-tuyg'ular turli xil ranglarda o'z ifodasini topadi. B. Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingnz Axmarov, Ro'zi Choriev, Milnikov, Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat ko'zga aniq tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. Xususan, «Raqsning tug'ilishi» kompozistiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko'ramiz. Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko'lami insonlar obraziga, ya'ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san'atda u kishi o'z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan etuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G'arb an'analarini o'zlashtirib, ana shu an'analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Ana shuning uchun ham xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari e'tiboriga muyassar bo'lgan. Rassom o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg'or davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: «Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni echishga, o'z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi». Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Bahodir Jalolov (1948.27.5, Toshkent) — rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi (1992), O'zbekiston (1997) va Qirg'iziston (1998), I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik in -tini tugatgan (1974). Toshkent teatr va rassomlik san'ati in-tida o'qituvchi (1974—80); 1997 y.dan Milliy rassomlik va dizayn in-tida mahobatli rangtasvir ustaxonasi rahbari, prof. (2000). O 'zbekiston rassomlari uyushmasi boshqaruvi raisi (1987—92). Ijodini portretlar yaratish b-n boshlagan. Portretlarida kishilarning kasbi haqida tasavvur beruvchi holatlar aks ettirilgan, ijodiy mehnat jarayoni, chuqur psixologik holat mahorat b -n ko'rsatilgan («Me'mor», 1972; «Masxaraboz Akrom Yusupov», 1974; «Avtoportret», 1975; «Kulol ayol. Xalq ustasi Hamro Rahimova», 1975; «Soniya va mangulik. O'rol Tansiqboev xotirasiga», 1977; «Porloqerta. Rassom Sh. Abdurashidov xotirasi», 1980; «Tiklash. Xalq ustasi Muhiddin Rahimov», 1980). 70-y. larning oxiri — 80-y.larning boshlaridan mahobatli rassomlik sohasida samarali ijod qiladi: Qarshi musiqali drama teatri binosiga, «Chimyon» sanatoriysi oshxonasi foyesiga (1981), Toshkentdagi Kinochilar uyiga (1982) ishlagan devoriy rasmlari rassomni betinim izlanayotgan, o'ziga xos uslub yaratgan rassom sifatida tanitdi. «Bahor» konstert zali foyesiga ishlangan «Raqsning tug'ilishi» (1982), Qashqadaryo viloyati Tallimarjon nasos stanstiyasi klubi devoriga (1983), Qo'qon teatri foyelariga (1987), Tojikistonning Xo'jand sh.dagi maktab binosiga (1988), Belgiyaning Kortreyk sh.dagi «Kortreyk 200» (1990), Toshkentdagi Turkiston saroyiga («Umar Xayyom tushlari», 1993) va b.ga ishlangan devoriy rasmlar, manzaralar («Isfarada bahor», «Tog' qishlog'i. So'qmoq», «Eski Gurzuf ko'chasi» va b.), kitoblarga yaratilgan illyustrastiyalar (Navoiy, T. Tula, U. Nosir va b. asarlari), dastgoh kartinalari («Afg'oniston — 83», «Afg'oniston tongi» va b.) muallifidir. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti lauriyati.

## Alisher Mirzayev - O’zbekiston Xalq rassomi




**Alisher To‘laganovich Mirzayev** (1948.21.3, Toshkent) — rangtasvir va grafika ustasi, O‘zbekiston BA akad. (1997). O‘zbekiston xalqrassomi (1992). P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurti (1964—68) va V. Surikov nomidagi Moskva rassomlik san’ati instituti (1968-74)da ta’lim olgan. Toshkent politexnika instituti (1974-78) va Toshkent teatr va rassomlik san’ati instituti (19781997)da pedagog . 1997 yildan Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida pedagog , prof. (2000). M. asarlari o‘zining milliyligi, ranglar uyg‘unligi bilan ajralib turadi; dastlabki asarlaridayoq an’anaviy mavzularga o‘ziga xos yechim va talqin baxsh etdi: "Sozandalar" (1968), "Rassom K. Nosirov" (1975), "Yosh oila haqida qo‘shiq" (1976), "Uchrashuv" (1982) va boshqa "So‘qoq mozaikasi", "Rassom va tabiat", "Parkent ayollari" (1980-yillar) kabi manzaralar, "Avtoportretli natyurmort" (1982), "Surxondaryo natyurmorta" (1982) va boshqa natyurmortlar turkum asarlarida manzara, urf-odatlar mujassamlashgan, tabiat va inson birligi tarannum etilgan.

1990-yillarda A. Qodiriy asarlariga, jumladan, "O‘tgan kunlar" asariga qalamtasvirda "Kumush va Zaynab", "Xayol", "Haydalish kuyi", "Fuzuliyni o‘qib", "Hayotim lolazoridan ayurding" va boshqa asarlar yaratib milliy grafika rivojiga katta hissa qo‘shdi. 1972 yildan respublika va xorijiy ko‘rgazmalarda asarlari bilan qatnashadi. M. asarlarvdan bir qismi respublika va chet mamlakatlar muzeylari, shaxsiy to‘plamlarda saqlanadi. M. haqida "Palitra" (1983) va "Alisher Mirzo" (2000) nomli filmlar ishlangan. Ab-dulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1994). "El-yurt xurmati" ordeni bilan mukofotlangan (1999).

Alisher Mirzayevning milliy rangtasvir yo’nalishidagi ijodida milliy an’analarning tarannumi o’z aksini topgan. Qolaversa, ranglarning tanlanishi tomoshabinni voqelikka teran ko’z bilan qarashga undaydi. Tarixiy qadriyat, o’tmish va bugunning

uyg’unlashuvi, ajdodlar va avlodlar silsilasidagi chizgilar,odob-axloq tamoyillari ijodkor asarlarida yorqin ifodalangan. Tadbirdan ko’zlangan maqsad shu bo’ldiki, ustoz-shogird an’analarini yanada rivojlantirish, zamonaviy milliy rantasvir, uning ijodkorlari ijodida milliy an’analarga tayangan holda yangi uslub va vositalarni shakllantirishdir. Shu ma’noda, talaba yoshlarga ustoz ijodkor Alisher Mirzaev ijodi orqali Zamonaviy milliy rangtasvir muammolari va istiqbollari borasida tushunchalar berildi. Uning manzaraga oid asarlari chet ellarda ham namoyish qilib kelinmoqda. A. Mirzaevning ijod namunalaridan ―Anor daraxti‖, ―Tog’ daryosi sohilida‖, ―Shahar manzarasi‖, ―Boloxonada‖ qishloq manzarasi ko’rinishlari kabi asarlardir. Uning ―Yangi va eski Toshkent turkumidagi asarlarida qadim va navqiron shaharning ko’rinishi aks etgan. Unda Toshkentning ko’hna Eski shahar bilan zamonaviy binolar aralashib ketgan qismi - Chorsu bozori ko’rinishi tasvirlangan. Rassom shaharning tinimsiz harakatdagi hayotidan bir lahzalik holatni kartinaga muhrlab qo’ygan. A.Mirzaevning bu asari ekspressiv-ramziy tarzda yaratilgan kartinalardan hisoblanadi.

## Laylo Abdubakirovna Salimjonova

Hozirgi zamon, O’zbekiston tasviriy san’atining manzara, portret, natyur - mort va maishiy janrlarida barakali ijod qilayotgan, o’zbek rassomlaridan yana biri, Laylo Salimjonovadir. Laylo Abdubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shahrida tug’ulgan. Layloning otasi huquqshunos, onasi uy bekasi edi. Ushbu oila 1941 yilda Toshkentga ko’chib keladi. Oilada san’atga dahldor kishi bo’lmasada, Laylo o’rta maktabning 8-sinfini tamomlab, o’zining qiziqishi tufayli P.P.Ben’kov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga o’qishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvaffaqiyatli bitirib, shu yilning o’zida teatr va rassomlik institutining tasviriy san’at fakultetiga hujjat topshiradi. Institutni 1963 yilda tamomlaydi. U yerda Laylo, N. Qo’ziboyev, T.Oganesov, P.Ahmedov kabi ustoz rassomlar qo’lida san’at sirlarini o’rganadi. Yosh rassomni marg’ilonlik kashtachi qizlarning betak- ror va ajoyib ishlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Shu boisdan u diplom ishi uchun

“Marg’ilon kashtachilari” mavzusini tanlaydi. “Saodat” jurnalining bosh muharriri shoira Zulfiya, Laylo Salimjonovani 1963 yilda, ya’ni u hali talabalik davridayoq mazkur jurnalga ishlashga taklif qilgan edi.

Shu tariqa Laylo Abdubakirovna Salimjonova bu jurnalda 30 yil mobaynida bosh rassom bo’lib ishladi. Keyinchalik u “Guliston” jurnalida ham faoliyat ko’rsatdi. Bu yillar mobaynida iste’dodli rassom O’zbekiston rassomlar uyushmasining a’zosi bo’ldi, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi unvoniga saza- vor bo’ldi. Laylo Salimjonova o’tgan asrning 60-70 illaridagi ko’rgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Uning bu janrdagi “Jamila Juma-yeva”, “Bahri G’ulomova”, “Zulfiya” kabi asarlari diqqatga sazovordir. Keyin- chalik u “Halima Xudoyberdiyeva”,”Onalik”, “Yashnarxon portreti”, “Singlim portreti”, “Ma’mura Boboyeva”, “To’quvchi qizlar”, “Farida portreti”, “Arxitektor M. Xudoynazarova”, “Dilorom Qambarova”, “Zamira Hidoyatova”, “Hamro Rahi- mova” kabi yana o’nlab betakror ortretlarni yaratdi. Birgina “Hamro Rahimova” asarining yaratilishi tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvohi bo’lamiz.

Rassom asar yaratishga material to’plash maqsadida xalq o’yinchoqlari ustasi Hamro Rahimovaning uylariga borib, ularning xonadonlarida bir necha kun mehmon bo’ladi. Laylo Salimjonovani betakror o’yinchoqlarning yaratilish bos- qichlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Bu jarayonni o’z ko’zi bilan ko’rgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining kompozitsiya yechimini topadi. Laylo Salimjo- nova ustaning mehnat jarayonida xomak eskizlar ishlar ekan, ba’zida uni savol- larga ko’mib tashlar edi. Shu tariq “Hamro Rahimova” suvrati yaratilgan. Qiziq tomoni shundai, bu asardagi turli yosgdagi bolakaylar tasviri umuman qaxramonga notanish va rassom tomonidan kiritilgan. “Ustaning hovlisida bu quvnoq bolalarning ko’rmagan bo’lsam-da, o’zimda bolalar timsolini ham asarga kiritish istagi paydo bo’lgan”, – deydi, asar muallifi. Laylo Salimjonova tabiatni tasvirlashda ham o’z yo’nalishga ega. Bunga “Soy bo’yida”, “Oq tosh”, “Varrak”, “Hovlida”, “Qoratosh”, “Tog’da kuz” kabi asarlarini kuzatish orqali yana bir bo amin bo’lamiz. Ayniqsa, “Tog’da kuz” asari ham mazmun, ham kompozitsiya jihatidan chuqurroqdir. Asarda ilgari surilgan g’oya – kuz faslining go’zalligi, musaffolik, sokinlikni tarannum etishdan iborat- dir. Savlatli tog’lar, barglari sarg’aygan bog’lar, qirg’og’I toshlar bilan o’ralgan zilol suvli

soy va boshqako’plab manzara unsurlari, yuqori tasviriy mahorat bilan ishlangan.

Laylo Salimjonova gularni juda sevadi. Uning “Xrizontema natyurmorti”, “Oq gular”, “Moviy fondagi natyurmort”, “Xrizontemalar” kabi asarlarini kuzatib , gullardagi go’zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin. 1991 yilda yaratilgan “Xrizontemalar” nomli natyurmortida rassom gullar- ning guldonda tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko’ringan stolning perespektiv holati orqali asar kompozitsiyasini yaxlit namoyon etadi. Laylo Salimjonova mo’yqalamiga mansub asarlar, Angliya, Iordaniya, Isroil, Hindiston kabi ko’plab davlatlargacha yetib borgan. Uning “Qora qahva” nomli natyurmorti esa, Angliyalik mashhur shaxsiy kolleksioner tomonidan sotib olingan.

Laylo Salimjonova yurtimiz rassomlarining keksa avlodiga bo’lishiga qara- may, hanuzgacha ijod bilan band. U o’z suhbatlarida Z. Inog’omov, M.Saidov asarlarini sevishini, jahon san’ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o’zgacha hurmat bilan qarashini e’tirof etadi. Laylo Salimjonovaning ijodi oilasiga ham tasir qilgan. Buni rassomning ug’li Ahmad Boboyev ijodida yaqqol ko’rish mumkin. U kino sohasida rassom bo’lib ishlaydi. Qizi Lola Boboyeva ham onasi kasbini ezozlab, dezaynerlik san’- atini egallagan. Uning ishlari AQSH hamda Parij ko’rgazmalarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan. Laylo Salimjonovaning turmush o’rtog’i Baxtiyor Boboyev ham mashhur o’zbek rassomlaridan biridir.

## Abdullayev Abdulhaq - O’zbekiston Xalq rassomi



**Abdullayev Abdulhaq Oqsoqolovich** (1918.30.12, Turkiston shahri) — rangtasvir ustasi. O’zbekiston xalq rassomi (1968), O’zbekiston BA faxriy a’zosi (1997). Samarqand badiiy bilim yurtida (1931 — 36) va Moskva badiiy institutida (1938 — 41) ta’lim olgan. Ijodini manzara va portretlar chizish bilan boshlagan («Hovuz bo’yida», 1932; «Yoz», 1937; «Do’stim portreti», 1937). Kishilarning holat va kayfiyati, ma’naviy, yorqin qiyofalari mohirona ifodalangan portretlari bilan mashhur: «Abror Hidoyatov Otello rolida» (1946), «Mannon Uyg’ur» (1946), «Oybek» (1949), «Nazarali Niyozov» (1949), «Jiyan Shahlo» (1959), «Komil Yashin» (1960), «Navoiy» (1973), «Y. To’raqulov» (1975), «O. Sodiqov» (1978) va b.; shuningdek ruhiy dunyosi va kechinmalari ifodali tasvirlangan («Muallif portreti», 1937;) Manzaralar («Yomg’irdan so’ng», 1954; «Bahor keldi», 1955; «Xumsonda», 1961 va b.), natyurmortlar («Olma», 1962; «Uzum va shaftoli», «Qovun bilan xandalak», 80-yillar va b.) muallifi. 1957 yil Hindiston safari taassurotlari asosida bu o’lka manzaralari («Tongda Tojmahal»), kishilari (I. Gandi, S. Ketchlu)ni etyud va kartinalarida aks ettirgan. 80-yillarda O’zbekistonning mashhur kishilarining portretlarini ishladi. Asarlari xalqaro ko’rgazmalarda namoyish qilingan. Navoiy portretini yaratish ustida izlanishlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan asarlari Toshkentdagi Adabiyot muzeyida (1968), Andijon adabiyot va san’at muzeyida (1969), O’zbekiston san’at muzeyida (1980—84) va b. joylarda saqlanadi. Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti laureati (1977). «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan (1998).

# TASVIRIY SAN’ATGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUG’ATI

## -A-

**Avtoportret-** (grekcha so’zdan, Outos-o’zim)-rassom o’zini-o’zi tasvirlagan portret. Bu holda rassom ham, tasvirdagi shaxs ham bir kishini o’zidir.

**Aksent-** (lotincha so’zdan, Accentus-urg’u)-tasviriy san’atda rang, tus, chiziq yoki buyum, shaklning chehrani tasviriy san’atda rang, tus, chiziqlar yordamida urg’u berishdir.

**Anfas-** fas, olddan ko’rinishi, yuzning aniq ko’rinishi.

**Abstaksionizm-** mavhum san’at asarlarni to’laqonli o’z ichiga olgan badiiy yo’nalish.

**Avangardizm-** XX asrda paydo bo’lgan yangi shakl, uslub usul va tasviriy vositalar asosida ixtiro qiluvchi, izlanuvchi ba’zida bu so’z bilan yangi badiiy yo’nalishlarni ham atashadi.

**Akademizm-** akademik uslubga oid badiiy yo’nalish hisoblanadi.

**Animal janr-** hayvonot dunyosini va shu bilan birga jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san’at turi hisoblanadi.

**Alligat-** (lot alligo-bog’layman) bir jildga jamlangan mustaqil qo’lyozma yoki bosma nashr. Odatda kitob jovonlarida ko’p jildlanmagan yupqa kitob, broshyura, daftarlarni saqlashni xoxlamaslik sababli, shuningdek mavzu formatining umumiyligi yuzasidan qilinadi.

**Akvarel-** (ital acqurelo, lot aqua-suv) suvda oson eruvchan bo’yoqlar. Odatda akvarel tabiiy bo’yoq kukuni va daraxt elimida tayyorlanadi. Bo’yoqning asosiy xusisiyati mayinligi va qatlamlarining tiniqligidadir. Akvarelda oq bo’yoq yo’q. Uning o’rniga qog’ozning bo’yalmay qolgan qismi xizmat qiladi. Ko’pgina rassomlar ijodida (T.Muhammedov, M.Reyx,A.Bobrov va h.k) portret peyzaj bilan birgalikda kitob illyustrasiyalarida Akvarel asosiy o’rinni egallaydi

**Albom-** (fransuz Album, lot. Abum – xat yozadigan taxtacha)- 1) rasm chiziladigan, she’r, xotiralar va avtograflar yoziladigan, fotosuratlar qo’yiladigan, turli markalar yopishtiriladigan muqovali daftar;

2) rasmlar, fotosuratlar, chizmalar va boshqalardan iborat bosma kitob. Unda qisqa izohlar bo’lishi mumkin (masalan, Alisher

Navoiyning “Xamsa” asariga ishlangan minatualardan tashkil topgan albom )

**Avangard-** so’zi fransuz so’zdan olingan bo’lib “oldindagi qo’riqchi” ma’nosini anglatadi. Avangardizm oqimi XX asr boshlarida Fransiyada paydo bo’lgan. Uning tarafdorlari san’atni tubdan yangilashni maqsad qilib olganlar. Avangardizm oqimi vakillari o’sha davrgacha mavjud bo’lgan realizm, romantizm, improsionizm kabi oqimlarni tanqid qilib, san’at asarlariga zamonaviylikni olib kirishga uringanlar. Ulaning g’oyalari XX asr boshlarida mavjud bo’lgan kubizm, formalism, futurizm, ekspressionizm kabi oqimlar o’z aksini topgan.

**Animalistik janr-** hayvonlarni tasvirlovchi janr. Animalistik janrlar tasviriy san’atda qadimgi davrlardan boshlab keng qo’llanilib kelinmoqda.

**Animalist-** hayvonot dunyosini, olamini tasvirlovchi rassom.

**Asosiy ranglar-** qizil, sariq, zangori ranglar shunday deb ataladi. Bu ranglarni bir-birlari bilan aralashtirib boshqa ko’p ranglar olinishi uchun asosiy rang deb hisoblanadi.

**Axromatik ranglar-** yunon tilidan olingan bo’lib, rangsiz degan ma’noni anglatadi. Ular oq, qora, kulrang va ularning aralashmasidan hosil bo’lgan tuslardir.

**Afsonaviy janr** – xalq og’zaki ijodi asosida tasviriy san’at namunalarini aks etiruvchi janr.

**-B-**

**Byust** – odamning ko’kragigacha tasvirlangan haykali

**Batalik janr** - harbiy mavzusiga bag’ishlanadigan rangtasvir san’atining turi.

**Badiiy akademiya –** bu nom bilan asosan rassom, halkaltarosh, me’morlar tayyorlanadigan oliy o’quv yurtlari ataladi. Shuningdek, bu nom bilan nafaqat o’quv yurti, balki ularga rahbarlik qiladigan, tashkliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham tushuniladi. Masalan, O’zbekiston badiiy akademiyasi.

**Bo’yoq** – tasviriy san’atda rasm chizish uchun, shuningdek badiiy bezak ishlarida ishlatadigan qorishma. Uning moybo’yoq, akvarel, guash, tempera, emal, emulsiya kabi turlari bor.

**-V-**

**Vatman-** chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog’oz. lok berish” -degan ma’noni anglatgan.

**Vitraj –** oyna ustiga bo’yoq bilan ishlangan rangtasvir. Vitrajni ikki tomonlama ko’rish mumkin. Ular ko’pincha ma’muriy, o’quv yurtlari binolarining, uylarning derazalariga, eshik oynalariga (rasmli yoki naqshli) ishlanadi.

**Vizirovaniye-** chamalash, qo’lni uzatgan holda qalam yordamida narsaning enini bo’yiga bo’lgan nisbati, butunni bo’lakka bo’lgan nisbati kabilarni chamalab aniqlash.

**-G-**

**Galeriya-** tasviriy va amaliy san’at asarlari saqlanadigan va ko’rgazmalar o’tkaziladigan maxsus bino. Ma’lum asarlar turkumi ham tushuniladi. Masalan portret galeriyasi.

**Grafika** (grekcha so’zdan olingan bo’lib, graphikos-chiziqli chizilgan) – tasviriy san’atning bir turi. Rangtasvirga nisbatan kam rang ishlatilib, asosan oq va qora kontrast ranglar, chiziq va shtrixlar xarakterlidir. Grafikaga chizmatasvir, gravyura, litografiya kabi bosma tasvir turlari kiradi.

**Gamma** – rang gammasi ma’nosida, rangning turli tuslari. Masalan: iliq, sovuq, rang tuslari, ularning darajasi.

**Grizayl-** (fransuzcha-gris-kulrang) so’z bo’lib, bir xil rangda mo’yqalam yordamida bajariladigan tasviriy asariga aytiladi. Oq va qora rang tusi bilan farq qilinadigan usulda ishlangan turi.

**Grunt** – tasvir ishlanadigan zamin. U karton, bo’z, devor bo’lishi mumkin. Unga tegishli qorishma surtilgan bo’ladi.

**Guash** – italyan tilidan olingan bo’lib, suvli bo’yoq ma’nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydi. Guash bo’yog’i akvareldan uni qog’oz yuzasiga bir necha qavat qilib turlicha qalinlikda berilishi mumkinligi bilan farqlanadi.

**-D-**

**Diapozitiv-** (yunon dia – orqali va lotincha positives- ijobiy) – oq-qora yoki rangli fotografik tasvirli yupqa shaffof plyonka. Asosan, diaproyektorda nur ta’sirida yoritilib ko’resatiladi. Bosmaxonalarda nusxa ko’chirishda bosma formasi (shakli) sifatida ishlatiladi. Diapozitivning boshqa keng tarqalgan nomi-slayd.

**Dizayn** –kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovooq, mebel va shunga o’xshash narsalarning chiroyli shakl va rangini, yangi shakl-shamoyilini yaratish san’ati.

**Dastgohli rangtasvir** – tasvirning dastgoh (molbert) ga o’rnatib ishlanadigan turi. Rangtasvirning bu turida tasvirlanayotgan odam, hayvon va boshqalarning o’lchamlari o’zning haqiqiy o’lchamidan katta bo’lmasligi lozim.

**Devoriy rangtasvir –** (freska,alfresko)-uy shifti, devorga berilgan suvoq qurib ulgurmasdan uning ustiga ishlangan tasvir. Ular ba’zan shift, devor ustiga qoplangan mato, qog’oz ustiga ham ishlanadi.

**Drapirofka-** fon uchun ishlatiladigan har xil rangli matolar.

**-Y-**

**Yorug’ – soya—(**yorug’ va soya) tasviriy san’at nazariyasiga doir atama.

**Yorug’(shula**)- tasviriy san’atning nazariy asoslarigaoid atama bo’lib, nur va soya qonuniga tegishlidir.

**Yakuniy bezak-** bu atama kitob grafikasiga mansub, uning bob yoki fasllari, qismlarining oxirida berilgan tasvir. Ular naqshli yoki mazmunli bo’lishi mumkin.

**-J-**

**Janr** – hayot lavhalari, ko’rinishlarini uning mazmuniga ko’ra tasvirlovchi badiiy asar turidir. Masalan: manzara, natyurmort, maishiy, portret va boshqa tasviriy san’at janrlari mavjuddir.

**-Z-**

**Zastavka** – kitob matnining boshlanishi yoki har bo’limning oldidan qo’yiladigan naqshli syujetli rasm.

**Zarg’aldoq-** rang nomi apel’sin , mandarin yoki qovoqning ichki rangiga o’xshash rang.

**Zangori** – rang nomi, to’q sariq rang..

**Zarhal harf** – kitoblarning bob va fasllarining matn qismidagi bezakli yoki yirik qilib ishlanadigan birinchi harfi

**Zumrad** – rang nomi, yashil yaltiroq tosh rangiga yaqin rang.

**-K-**

**Kartina** – (rasm,surat)- alohida belgilangan nafis tasviriy san’at asari. Rasm (kartina) har xil janrda bo’lishi mumkin. Etyudga nisbatan borliqni (naturani) puxta o’ylangan va puxta ishlangan, tugatilgan detallari va shakllari mohirlik bilan aks ettirilgan ko’rinishidir.

**Kompozitsiya-** (lotincha-komposition-tuzish, bog’lash, bayon qilish) - 1) asar qurilmasida qismlarini ma’no-mazmunga bog’lash, bo’ysundirish, shakllantirish.

**Kontrast** – (farnsuzcha- contraste-keskin farq, qaqrama-qarshilik) – tasviriy san'atda qarama-qarshi qo'yilgan tus, rang, shakl, qiyofa nazarda tutiladi. Masalan, oq-qora, yorug'-soya, qizil-ko'k, to'g'ri egri, issiq-sovuq va boshqa kontrastlar. Kontrast tus yoki rang kompozitsiyada badiiylikni obrazini kuchaytiradim asosiy qismini tasirchanligini yanada oshiradi.
**Kolorit** – badiiy asar mazmunini tushunarli bo'lishda ranglar nisbatidan foydalanish, badiiy asardagi ranglarning umumiy tusi, tuzilishi. Masalan, Surikovning "O'qchilar qatl etilgan tong" nomli asaridagi ranglar sovuq koloriti asardagi fojia va jiddiylikni yorqin ifodalaydi.
**Karton** – qog'oz turi, rangtasvir asarining qoralamasi, qalam yoki ko'mir, qalamda ishlangan nusxasi.
**Kontur –** chegara, chiziq.
**Kopiya** – nusxa, ko'chirma.
**Kulrang** – oq va qora rangdan hosil bo'lgan rang turi.
